

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XOJIYEVA SHAXLO XAZRATOVNA

**CHO‘LPON IJODIDA JAHON ESTETIK TAFAKKURINING
POETIK SINTEZI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по
филологическим наукам**

Content of the abstract of dissertation on doctor (DSc) on philological sciences

Xojiyeva Shaxlo Xazratovna

Cho'lpon ijodida jahon estetik tafakkurining poetik sintezi.....3

Хожиева Шахло Хазратовна

Поэтический синтез мирового эстетического мышления в
творчестве Чулпона.....

Khojjeva Shakhlo Khazratovna

Poetik synthesis of world aesthetic thinking in Cholpon's work.....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XOJIYEVA SHAXLO XAZRATOVNA

**CHO‘LPON IJODIDA JAHON ESTETIK TAFAKKURINING
POETIK SINTEZI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Fil 635 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifaning www.nuu.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Quronov Dilmurod Haydaraliyevich

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hamdamov Ulug‘bek Abduvahobovich

filologiya fanlari doktori, professor

Afoqova Nodira Mahmudovna

filologiya fanlari doktori, professor

Tojiboyeva Muqaddas Abduraximovna

filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Chiqchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Тел.: (99890) 318-25-30; e-mail: www.nuu.uz)

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Тел.: (99890) 318-25-30; e-mail: www.nuu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ da tarqatildi.

(2024-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.Rahmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filol. f. d., professor

M.Xo‘jamqulova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.fan.b.fals.dok

D.Yusupova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol. f. d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida poetik tafakkur va uning badiiy ijoddagi an'analarni yangilashda tutgan o'rni, bu jarayonda milliy adabiyotlarning o'zaro ta'siri va shu asosdagi takomili masalalari doimiy e'tiborda bo'lib kelmoqda. Sharq va G'arb ma'rifatchilik adabiyoti, ularning zamon-makon tasviri va badiiy-estetik konsepsiya ifodasi nuqtayi nazardan o'ziga xosligi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-adabiy hayotda tutgan o'rni, ayniqsa, adabiyotshunoslikning diqqat markazida turgan muammolardan.

Dunyo adabiyotshunosligida badiiy adabiyotning ijtimoiy voqelikka va o'z navbatida, ijodkor asarlaridagi g'oyalarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, Turkiston hududida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllanib, uyg'onish mafkurasi vazifasini o'tagan jadidchilik harakati, uning ta'sirida yuzaga kelib, millat ongi va ruhini hamda ijodkor estetik idealini yangilagan jadid adabiyoti bo'yicha salmoqli tadqiqotlar yaratilgan va yaratilmoqda. O'zbek jadid adabiyotining adabiy tur va janrlarni, obraz va ramzlarni, badiiy ijod mazmuni va ruhini yangilashdagi o'rni, jahon adabiyotidagi yetakchi tendensiyalar bilan o'zaro munosabati, atoqli namoyandalari ijodiy merosining yangi adabiyotni shakllantirishdagi roli izchil baholanib kelmoqda.

O'zbek adabiyotshunosligida jadidchilik va jadid adabiyotining turkiy dunyoni "Tilda, fikrda, ishda birlik" g'oyasi atrofida birlashtirish, qardosh va jahon xalqlari bilan adabiy hamkorlikni yangi takomil bosqichiga yuksaltirish, Sharq va G'arb estetik tafakkurini uyg'unlashtirish, o'zga millatlar adabiyotidagi tajriba va yutuqlarni milliy ruhiyat bilan mutanosib tarzda ijod jarayoniga tatbiq etish yuzasidan, ayrim tahliliy fikrlar hamda ilmiy maqolalarni istisno qilganda, monografik tadqiqotlar yaratilgan emas. Ma'lumki, "Tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini to'la ro'yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz"¹. Turkiston jadid adabiyotining yetuk namoyandasi, yangi o'zbek she'riyatining asoschisi sifatida e'tirof etilgan bo'lishiga qaramay, Abdulhamid Cho'lpon (1897-1938)ning millat estetik tafakkurini yangilash, jahon adabiyotining buyuk namoyandalari badiiy kashfiyotlarini milliy she'riyat, nasr va dramaturgiyaga sintez qilish, badiiy tarjimalari orqali ular ijodiy tajribalari bilan milliy adabiyotimizni boyitish borasidagi faoliyati kabi monografik asosda o'rganilmagan muammolar tadqiqiga bag'ishlangani ushbu dissertatsion tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF – 5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 30-sentyabrdagi "Ma'rifatparvar jadidchilik

¹ Мирзиёев Ш.М. Жади́длар меросини ўрганишга бағишланган халқаро конференция иштирокчиларига табрик. Янги Ўзбекистон. – Тошкент, 2023 йил 7 март.

harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida", 2020-yil 8-oktyabrdagi "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PQ – 2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ – 3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-son "Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyi va Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Jadid adabiyoti va Cho'lpon ijodiga doir ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Michigan universiteti, Kolumbiya universiteti (AQSh), Humboldt universiteti (Germaniya), Ankara universiteti, Istanbul universiteti, Gazi universiteti, Turk madaniyati tadqiqot markazi (Turkiya), Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti, O'zbekiston Milliy universitetida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va davom etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligidagi tadqiqotlar natijasida Cho'lpon ijodida jahon adiblari ijodining ta'siri mavzusiga doir olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy umumlashmalarga kelingan: Cho'lpon ijodida poetik timsollar va obrazlar tizimi, shoir lirikasida tabiat va hurriyat tasviri³ (Michigan universiteti), Cho'lponning Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni⁴ (Kolumbiya universiteti), Cho'lpon she'riyatida ayollar obrazining tutgan o'rni, mumtoz adabiyot an'analarining yangilanishi va 1910-1934-yillarda o'zbek she'riyati va dramaturgiyasi⁵, Cho'lpon va boshqa shoirlar ijodida vatan, yurt timsolining

² Columbia University in the City of New York, University of Michigan, Humboldt-Universität zu Berlin, University of Münster, Ankara Üniversitesi, İstanbul Üniversitesi, Gazi Üniversitesi | Gazili Olmak Ayrıcalıktır, Университет Атаюрка (Турция) – Atatürk Üniversitesi, Кыргызско-Турецкий Университет Манас, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kabi manbalarda yoritilgan.

³ Kocaoğlu T. Çolpan'ın Şiirlerinde Tabiat ve Hürriyet Duygusu. Türk Edebiyatı, Aralık 1993, Sayı: 242. – S. 41-45; O'sha muallif. Nationality identity in soviet central asian literature: kazakh and uzbek prose fiction of the post-stalin period. Diss. work. – New York: University of Columbia, 1983.

⁴ Allworth E. Uzbek Literary Politics, The Hague: Mouton and Co., 1964.

⁵ Kleinmichel S. Aufbruch aus orientalischen Dichtungstraditionen. Studien zur usbekischen Dramatik und Prosa zwischen 1910 und 1934. – Budapest: Akadémiai Kiadó, 1993. – 279 p.

yangilanishi⁶ (Humboldt universiteti), Cho‘lpon ijodining rus shoiri A.S.Pushkin bilan qiyoslanishi⁷, Cho‘lponning she‘riy va nasriy asarlari poetikasi⁸ (Myunster universiteti), Cho‘lpon she‘riyatining yangilanish tamoyillari, Cho‘lpon ijodiga turk adabiyotining ta’siri masalasi⁹ (Istanbul universiteti, Ataturk universiteti) Cho‘lponning an’anaviy mumtoz adabiyotdan ta’sirlanishi, vazn, ritm, qofiyadagi yangicha yondashuvlar (Türk Kültürü Araştırma Merkezi), Cho‘lpon she‘riyati badiiyati (Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti)¹⁰, Cho‘lponning ijodiy faoliyati¹¹, “Yorqinoy” dramasida ayol obrazi¹² (Manas nomidagi qirg‘iz-turk universiteti) kabi mavzularda tadqiqotlar olib borilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Cho‘lpon ijodi bo‘yicha bir qancha doktorlik¹³ va nomzodlik¹⁴ dissertatsiyalari himoya qilingan. Jadidchilikka bag‘ishlangan dissertatsiyalarda shoir adabiy merosi yuzasidan tahliliy qarashlar bildirilgan¹⁵. Alohida monografiyalar¹⁶ va ilmiy maqolalar chop etilgan. Shoir

⁶ Baldauf I. Orient und Frau in der frühen uzbekischen Lyrik. – Berlin, 2008. – S. 176.

⁷ Hayit B. Abdülhamid Süleyman Çolpan (1897-1938) / <https://www.ulkuyaz.org.tr/baymirza-hayit-colpan/>

⁸ Hayit B. Türkistan Yeni Edebiyatında İki Sima: Qadiri ve Çolpan // Millij Türkistan. 1964, Mayis – Haziran. Sayı 102. – S. 19.

⁹file:///D:/desktop/Documents/Downloads/Telegram%20Desktop/_Cholpan_ve_Jumabayuli_da_Anadolu_kurtulu_s_ava_i_nin_yansimalari%23380870.pdf

¹⁰ Ülvi A. Çolpan poetikasi. “Ədəbi əlaqələr” III toplu, 2008. – S. 28-43. Ülvi A. Çolpan – türkcədən ulduz deməkdir //Xalq qəzeti, 2008. 8 aprel. Özbək şeirinin Çolpan səhifəsi //Tbilisi, “Qaraqalpaqlar” jurnalı. 2008. – № 7.

¹¹ Özbay H. Abdülhamid Süleymanoğlu Çolpan’ın Şiirleri. Metin-Aktarma-İnceleme. Türk Kültürü Araştırma Enstitüsü Yayınları. – Ankara, 1993. – S. 133.

¹² Özturkchu H. Çolpan’in “Yarkinay piyesinde Kadın” / “Yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi va takomilida Abdulhamid Cho‘lpon ijodining o‘rni”: xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman, 2022, 15-mart. – B. 103-114.

¹³ Куронов Д. Чўлпон поэтикаси (насрий асарлари асосида). Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 1998; Юлдашев Н. Чўлпон шеърияти поэтикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Андижон, 2024.

¹⁴ Эшонова З. Чўлпон шеъриятининг хусусиятлари (20 йиллар ижоди мисолида). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1991; Куронов Д. “Кеча ва кундуз” романида характерлар психологизми. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1993; Йўлдошев Н.Т. Чўлпон шеъриятида пейзаж. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994; Султонов У. Чўлпоннинг адабий эстетик қарашлари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида). Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2000; Йўлдошбекова С. Чўлпоннинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2002; Тўйчиева Ш.Ф. Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романида ижодкор дунёқараши ва бадий услуб муаммолари. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2006; Айтматов А. Абдулҳамид Чўлпон эстетикасининг ғоявий-бадий асослари. Фалсафа фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011; Хожиева Ш. Чўлпон шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгиланиш тамойиллари. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. – Қарши, 2019; Жабборова Д. Истиклол даври ўзбек адабиётшунослигида Чўлпон ижоди талқинлари (шеърияти ва насрий асарлари мисолида) Филол. фан. б. фалс. док... дисс. – Самарқанд, 2018; Исломов С.И. Чўлпон шеърларининг матний тадқиқи ва илмий-танқидий матнини яратиш. Филол. фан. б. фалс. док... дисс. – Андижон, 2021.

¹⁵Афоқова Н. Ўзбек жадид адабиётида шеърий шакллар тараққиёти тамойиллари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2005; Ҳамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадий тафаккур тадрижининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2015; Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт аъёнлари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2017; Назарова Ш. XX аср бошлари ўзбек шеъриятининг янгиланиш тамойиллари (янги ўзбек шеърияти контекстида). Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2022; Эрназарова Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадий талқини (А.Чўлпон, Ғ.Ғулом, А.Орипов шеърияти мисолида). Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2001; Давлатова А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2011; Yoqubova S. O‘zbek jadid she‘riyatida obraz va ramzlar poetikasi. Filol. fan. fals. dok... diss. – Toshkent, 2024.

¹⁶ Шарафиддинов О. Чўлпон. – Тошкент: Чўлпон, 1991. – 108 б.; Каримов Н. Чўлпон. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 84 б.; Мамажонов С. Бизнинг Чўлпон. – Тошкент: Ёзувчи, 1997. – 64 б.; Ёкубов Ҳ. Чўлпон ва Навоий. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 48 б.

adabiy merosi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari darsliklariga kiritilgan.

Cho'lpon ijodini o'rganish u hayot kezaridayoq boshlangan. Dastlab e'tirof ruhida tadqiqotlar asta-sekin e'tirozga, undan siyosiy ayblovlariga qarab borgani ma'lum. Shoir qatag'on qurboniga aylangach, to mustaqillikka qadar uning ijodini o'rganish taqiqlangani ayon. Istiqlol yillarida cho'lponshunoslik alohida ilmiy yo'nalish sifatida takomilga erishdi.

Ijodkor va jahon estetik tafakkuri mavzusi dunyo adabiyotshunosligida muayyan darajada o'rganilgan. Cho'lpon ijodida jahon adabiyoti yutuqlarining poetik sintezi yuzasidan ayrim ilmiy ishlarda ahamiyatli qarashlar bildirilgan. Ushbu dissertatsiya mazkur ilmiy muammo monografik asosda alohida tadqiq etilgani jihatidan shu paytgacha amalga oshirilgan tadqiqotlardan farq qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyoti tarixini o'rganishning ilmiy-nazariy muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jahon estetik tafakkurining Cho'lpon ijodiy kamolotida tutgan o'rni, shoir she'riyati va nasri takomilida dunyo va qardosh xalqlar adabiyoti yutuqlarining poetik sintezi qonuniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

G'arb va Sharq ma'rifatchilik adabiyotining milliy she'riyatni poetik yangilashdagi ta'siri darajasini aniqlash;

Cho'lpon she'riyati poetik obrazlari takomilida Sharq she'riyati an'analarining o'rini belgilash;

G'arb she'riyati tajribalari Cho'lpon lirikasi obrazlarini yangilash asoslaridan ekanini ochiqlash;

shoir estetik tafakkuri yangilanishida qardosh xalqlar she'riyati yutuqlarining rolini yoritish;

Cho'lpon badiiy nasrida rus prozasi tajribalarining poetik sintezi qonuniyatlarini asoslash;

adib nasri takomilida Robindranat Thokur ijodiy laboratoriyasining ta'siri miqyosini dalillash;

Cho'lpon ijodida jahon estetik tafakkuri sintezi yuzasidan nazariy umumlashmalar chiqarish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Cho'lponning "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926) she'riy to'plamlari; shoir asarlari to'rt jildligi (Toshkent: Akademnashr, 2016); Cho'lpon asarlarining ikki jildligi (Toshkent: Akademnashr, 2021) hamda vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilingan she'rlari, nasriy asarlari va maqolalari olingan.

Tadqiqotning predmetini Cho'lpon she'riyati va nasriy asarlarida badiiy tafakkur hamda poetik obraz yangilanishi omillari, shoir ijodida jahon estetik tafakkurining hamda qardosh xalqlar adabiyoti tajribalarining badiiy sintezi qonuniyatlari tahlili belgilaydi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, sotsiologik, analitik va biografik usullardan istifoda etildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yevropa ma'rifatchiligi va Turkiston jadidchilik harakati shakllanishi va takomilidagi o'zaro mushtarak va farqli jihatlar aniqlanib, jamiyat hayotining barcha jabhalarini ilm-ma'rifat vositasida isloh etish, ma'rifatchilikdan siyosiy mustaqillik uchun kurashishgacha bo'lgan jarayonni bosib o'tish bilan bog'liq mutanosiblik va o'ziga xoslikni belgilovchi qonuniyatlar asoslangan. Milliy estetik tafakkur takomilida yangi davrni boshlab bergan jadid adabiyoti maydonga kelishi jahon adabiy harakatchiligi kontekstida baholanib, Abdulhamid Cho'lpon ijodining ana shu yangi adabiyotda tutgan o'rni tayin etilgan;

jadid ijodkorlari tomonidan jahon adabiyotidan qilingan tarjimalar milliy adabiyotimiz poetik yangilanishiga kuchli ta'sir etgan muhim badiiy-estetik omil ekani yoritilib, u orqali jahon adabiyoti durdonalaridagi mazmun va shakl o'zbek adabiyotiga transformatsiyalangani, yangi janrlar kirib kelgani ochiqqlangan hamda buning isboti sifatida milliy adabiyotimizda roman, drama, sonet kabi janrlarning qaror topish yo'llari isbotlangan;

Cho'lponning yangi o'zbek she'riyatiga asos solgani, uning shakl-shamoyili, mazmun-ruhi, marom-ohangini bir butunlikda – o'zining lirik ijodida ko'rsatib bergani, Sharq nazmiy an'analarning Cho'lpon she'riyatidagi takomili poetik obrazlar misolida kuzatilishi, obrazlar tizimining mushtarakligi an'anaviylikni, ular ifoda etayotgan mazmun novatorlikni belgilovchi xususiyatlar ekani dalillangan. Shoir ijodiy tafakkurining yuksalishi G'arb va rus she'riyatidan ta'sirlanishi natijasi ekani Shekspir, Gyote, Pushkin, Blok kabi shoirlar she'rlari va ularning Cho'lpon amalga oshirgan tarjimalari bilan qiyoslash asosida ochib berilgan;

ijodining shakllanish bosqichida turk-tatar va ozarbayjon zamonaviy adabiyoti bilan yaqindan tanishuvi Cho'lponning shoir va shaxs sifatidagi kamolotiga zamin yaratgani, ijodkor sifatidagi o'sishi tatar ma'rifatchi-mutafakkirlari (Ismoil Gasprali, Mullanur Vohidov, Zaki Validiy) ta'siridan boshlangani, ularning ma'rifat va ozodlik bilan bog'liq g'oyalari yosh shoir dunyoqarashi, Cho'lpon bilan Abdulla To'qay, Mag'jon Jumaboy kabi qardosh shoirlar ijodi va qarashlaridagi uyg'unlik yoritilgan;

Cho'lponning nosir sifatida shakllanishi va kamolotiga ta'sir etgan omillar rus nasri hamda hind adibi Robindranat Thokur ijodi namunalaridan qilgan tarjimalari va ilmiy maqolalari misolida asoslangan. Cho'lponning rus tilini mukammal bilgani, uning nasrdagi ijodiy yutuqlari rus prozasi, xususan, Maksim Gorkiy, Aleksandr Serafimovich va Lidiya Sayfullina asarlaridan amalga oshirgan tarjimalaridagi mahoratida namoyon bo'lishi dalillangan. "Ona" va "Kecha va kunduz" romanlaridagi syujet o'xshashligi, ma'naviy-ruhiy jihatdan uyg'un obrazlar (Ona va Qurvonbibi, Pavel Vlasov va Sharafiddin Xo'jayev, Mixail Vlasov va Razzoq so'fi kabilar), "Tong" hikoyasi tarjimasidagi o'ziga xosliklar asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

G'arb va Sharq ma'rifatchilik adabiyotlarining jamiyat va alohida shaxslar hayotiga, ijtimoiy va estetik tafakkur rivojiga ta'siri, ma'rifatni o'stirish orqali ijtimoiy hayotni yangilashga xizmat qilgani, ushbu tendensiyaning Cho'lpon

ijodidagi badiiy sintezi asoslangan;

Yevropa ma'rifatchiligi va Turkiston jadidchilik harakati yuzaga kelishidagi ijtimoiy-tarixiy, madaniy-ma'rifiy shart-sharoitlarning uyg'unligi, shaxs kamoloti va ideal jamiyat g'oyasi ma'rifatchilik adabiyotining estetik idealiga aylangani Cho'lpon va jahon estetik tafakkuri sinkretizmi asosida isbotlangan;

Cho'lpon ijodiy kamolotiga milliy mumtoz adabiyotimizning buyuk namoyandalari Alisher Navoiy, Jahon otin Uvaysiy, Zokirjon Furqat kabi shoirlar badiiy kashfiyotlarining ta'siri yor, ag'yor, g'arib, qilich, qin, kishan, yulduz, xayol, bulut singari obraz, ramz va timsollar, "vafo qasri", "muhabbatning saroyi", "g'unchayi davlat", "hukumat gulshani" kabi badiiy ko'chimlar tahlilidan kelib chiqib dalillangan;

Cho'lpon ijodida Tavfiq Fikrat va Yahyo Kamol singari turk, Ismoilbek Gaspirinskiy, Abdulla To'qay, Mullanur Vohidov, Abdulla Alaviy, Ahmad Zaki Validiy kabi qrim-tatar, tatar va boshqird, A.S. Pushkin, Turgenev, M.Gorkiy, A.Blok singari rus shoir va adiblari ijodiy yutuqlari sintez qilingani, uning poetik tafakkuri takomilining asosiy estetik omillari shular ekani ochiqqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Xorijiy davlatlar va mamlakatimizning yuqori reytingga ega ilmiy jurnallarida nashr qilingan maqolalar, xalqaro va respublika ilmiy-nazariy konferensiyalaridagi ma'ruzalar, chop etilgan tezis va maqolalar, tadqiqot obyektiga ilmiy yondashuv mezonlari hamda qo'llanilgan usullarning dissertatsiya maqsadi va vazifalariga muvofiqligi, nazariy ma'lumotlarning ishonchli nazariy adabiyotlarga tayanilib bildirilgani, obyekt sifatida olingan qissa va hikoyalarning tadqiqot predmetiga uyg'unligi, nazariy konsepsiya va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan ilmiy natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyot tarixiga doir nazariy fikrlarni boyitishi, xususan, G'arb va Sharq ma'rifatchilik adabiyotining o'ziga xosligi va Cho'lpon ijodidagi poetik sintezi, milliy adabiyotimizning poetik yangilanishi tendensiyalari va jahon estetik tafakkuri bilan integratsiyalashuv tadriji, Sharq va G'arb adabiyoti yutuqlarining Cho'lpon ijodidagi poetik obrazlar takomiliga ta'siri, turk va ozarbayjon adabiyoti an'alarining shoir ijodiy kamolotida tutgan o'rni, Cho'lponning tatar-boshqird ijodkorlari bilan adabiy hamkorligi, adibning zamonaviy nasrdagi yutuqlarida rus adabiyoti tajribalari hamda Robindranat Thokur badiiy kashfiyotlarining ta'siri kabi masalalar talqiniga doir qarashlardan jadid adabiyoti va jahon estetik tafakkurining o'zaro munosabatini o'rganishda nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlari "Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari va Adabiyotshunlik (o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi magistrantlari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi" hamda "Jadid adabiyoti tarixi" fanlari bo'yicha darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza mashg'ulotlarida, maxsus kurslar va seminarlar o'tishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Cho'lpon ijodida jahon estetik tafakkurining poetik sintezi muammosini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy

natijalar asosida:

Yevropa ma'rifatchiligi va Turkiston jadidchilik harakati shakllanishi va takomilidagi mushtarak va farqli jihatlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarini ilm-ma'rifat vositasida isloh etish, ma'rifatchilikdan siyosiy mustaqillik uchun kurashgacha bo'lgan jarayon bilan bog'liq mutanosiblik va o'ziga xoslikni belgilovchi qonuniyatlarga doir xulosalardan hamda milliy estetik tafakkur takomilida yangi davrni boshlab bergan jadid adabiyoti maydonga kelishi jahon adabiy harakatchiligi kontekstida baholangani, Abdulhamid Cho'lpon ijodining ana shu yangi adabiyotda tutgan o'rni tayin etilgani bilan bog'liq xulosalardan ToshDO'TAUda akademik Sh.S.Sirojiddinov rahbarligida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 – "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jidlik monografiyani (7 jild) chop etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 10-dekabrda 04/1-4081-son ma'lumotnomasi). Natijada jadid ijodkorlari tomonidan jahon adabiyotidan qilingan tarjimalar milliy adabiyotimiz poetik yangilanishiga kuchli ta'sir etgan muhim badiiy-estetik omil ekani, u orqali dunyo adabiyoti durdonalaridagi mazmun va shakl o'zbek adabiyotiga transformatsiyalangani, yangi janrlar kirib kelgani hamda buning isboti sifatida milliy adabiyotimizda roman, drama, sonet kabi janrlarning qaror topish yo'llariga oid xulosalar loyihani yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitgan;

Cho'lponning yangi o'zbek she'riyatiga asos solgani, uning shakl-shamoyili, mazmun-ruhi, marom-ohangini bir butunlikda – lirik ijodida ko'rsatib bergani, Sharq nazmiy an'alarining Cho'lpon she'riyatidagi takomili poetik obrazlar misolida kuzatilishi, obrazlar tizimining mushtarakligi an'anaviylikni, ular ifoda etayotgan mazmun novatorlikni belgilovchi xususiyatlar ekaniga oid tahlillardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020 yillarda bajarilgan "IL-52 tur-21091433 raqamli "O'zbek milliy madaniyatiga xos atamalarga oid maqolalar bazasini yaratish" (Vikipediya elektron ensiklopediyasi rnezonlari asosida)" nomli amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 10-dekabrda 04/1-4083-son ma'lumotnomasi). Cho'lpon ijodiy tafakkurining yuksalishi G'arb va rus she'riyatidan ta'sirlanishi natijasi ekani Shekspir, Gyote, Pushkin, Blok kabi shoirlar she'rlari va ularning shoir amalga oshirgan tarjimalari bilan qiyoslash asosida ochib berilganiga doir ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarining xilma-xilligini ta'minlagan;

Cho'lpon ijodining shakllanish bosqichida turk-tatar va ozarbayjon zamonaviy adabiyoti bilan yaqindan tanishuvi shoir va shaxs sifatidagi kamolotiga zamin yaratgani, ijodkor sifatidagi o'sishi Ismoilbek Gasprali, Mullanur Vohidov, Zaki Validiy kabi tatar va qrim-tatar ma'rifatchi-mutafakkirlari ta'siridan boshlangani, ularning ma'rifat va ozodlik bilan bog'liq g'oyalari yosh shoir dunyoqarashini o'zgartirgani, Cho'lpon bilan Abdulla To'qay, Mag'jon Jumaboy singari qardosh shoirlar ijodi va qarashlaridagi uyg'unlik bilan bog'liq qarashlardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023 yillarda bajarilgan "PF-201912258 – "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus,

ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 10-dekabrda 04/1-4082-son ma’lumotnomasi). Cho‘lpon estetik tafakkurining takomili jahon va qardosh turkiy xalqlar adabiyoti yutuqlarining poetik sintezi samarasi ekanligiga oid ilmiy-nazariy qarashlar elektron platforma materiallarining yangi adabiy fakt va materiallar bilan boyitilishini ta’minlagan;

“O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Mavzu”, “Tarixiy savol”, “Javohir” va “Taqdimot” nomli ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda Sh.Xojiyevaning Yevropa ma’rifatchiligi va Turkiston jadidchilik harakati shakllanishi va takomilidagi o‘zaro mushtarak va farqli jihatlar, Cho‘lponning nosir sifatida shakllanishi va kamolotiga ta’sir etgan omillar, rus nasri hamda hind adibi Robindranat Thokur ijodi namunalaridan qilgan tarjimalari va ilmiy maqolalari, uning nasrdagi ijodiy yutuqlari rus prozasi, xususan, Maksim Gorkiy, Serafimovich asarlaridan amalga oshirgan tarjimalaridagi mahoratida namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq xulosalardan foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining 10.12.2024-yildagi 06-28-1254 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” va Maksim Gorkiyning “Ona” romanlaridagi syujet o‘xshashligi, ma’naviy-ruhiy jihatdan uyg‘un obrazlar (Ona va Qurvonbibi, Pavel Vlasov va Sharafiddin Xo‘jayev, Mixail Vlasov va Razzoq so‘fi kabilar), “Tong” hikoyasi tarjimasidagi o‘ziga xosliklar haqidagi qarashlar ko‘rsatuvlar saviyasini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida ilmiy jamoatchilik e’tiboriga havola etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tanlangan ilmiy muammo yuzasidan 33 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shu jumladan, 1 ta monografiya, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 11 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan bo‘lib, hajmi 240 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatyasi va tadqiqot tuzilishi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Jahon estetik tafakkuri – jadid adabiyoti takomili asoslaridan biri sifatida”** deb nomlangan birinchi bobning dastlabki faslida **“G‘arb va Sharq ma’rifatchilik adabiyotlari: mushtaraklik va o‘ziga xoslik”** masalasi tadqiq qilingan. San’at va madaniyat, adabiyot va ma’rifat Markaziy

Osiyo, Xitoy, Hindiston, Arabiston, Misr kabi o'lkalarda paydo bo'ldi va asta-sekin G'arbga ko'chdi. Rus adibi S.V.Sulginskiy: "G'arb – oqil, Sharq – donishmand, G'arb – kenglik, Sharq – teranlik, G'arb harakat bilan yashagan, Sharq esa orzu-umid bilan. Xayol, umiddan afsonalar tug'iladi, keyinchalik xalq afsonalaridan falsafiy tizimlar shakllanadi. Xalq afsonalari falsafalarning manbaidir. Agar G'arbning atoqli odamlari faol bo'lsa, Sharqda ular faylasuflardir. Olimlar Sharq afsonalarida nafaqat chuqur falsafiy tizimlar, balki, hamma falsafiy oqimlar, hind-ovrupo mifologiyasining ibtidosini topdilar. G'arbga nisbatan bir necha asrlar avval Sharqda yer yuzidagi hamma jonzotlarning evolyutsiyasi haqidagi ta'limot ishlab chiqilgan edi"¹⁷, deb haqiqatni tan oladi. O'rta asrlar islom fani G'arbga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Ma'rifatchilik – XVII-XVIII asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikada keng tarqalgan g'oyaviy-mafkuraviy, adabiy-ma'rifiy harakat. Mazkur hududlarda ushbu harakat g'oyalarini ifodalagan adabiyot ham shakllangan. G'arbning turli davlatlarida ma'rifatning maydonga kelishi vaqt nuqtayi nazaridan farqlanadi: u avval Angliyada yuzaga kelgan bo'lsa, tarixiy vaziyat taqozosiga ko'ra qit'aning boshqa mamlakatlariga ham tarqalib, takomilga erishgan. Jumladan, Rossiyada ma'rifat ancha kech – XVIII asrning ikkinchi yarmida maydonga kelgan; shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qator Sharq mamlakatlari, jumladan, turkiy xalqlar yasagan mintaqalar (Qrim, Tatariston, Turkiston, Ozarbayjon)da yoyilgan. Bu hududdagi va Yevropadagi ma'rifatchilik ko'p jihatdan mushtarak, shuningdek, o'ziga xoslikka ham ega. Chunki "Adabiyotlararo munosabatlar milliy adabiyot nuqtayi nazaridan o'rganilsa, uning xususiyligi qandaydir yaxlit struktura tarzida namoyon bo'ladi. Uning ayrim tarkibiy unsurlari alohidalik funksiyasini bajaradi, adabiyotlararo aloqalar va munosabatlar ham shular jumlasidan. Biroq jahon adabiy jarayoni nuqtayi nazaridan qaraganda milliy adabiyotning o'zi ham ancha umumiy qonuniyatlar va tendensiyalarga bo'ysungan alohidalik vaziyatida qoladi"¹⁸.

G'arbda ma'rifatchilik mafkurasi ta'sirida yangicha estetik tamoyillarga tayangan adabiyot dunyoga keldi. Bu adabiyotning asosiy xususiyati – idealning "yerga tushgani" natijasida badiiyat, go'zallik tushunchalariga ham jiddiy tahrir kiritilganidir. Ma'rifatchilik adabiyotda, eng avvalo, avlod tarbiyasi bilan ijtimoiy hayotni isloh qilish vositasini ko'rdi. XX asr avvalidagi Turkiston jadidchiligi XVIII asrdagi Yevropa ma'rifatchilik harakatiga ko'p jihatdan o'xshash ekani ma'lum¹⁹. Mavjud fikrlarni umumlashtirgan holda bu harakatlarning mushtarak jihatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. G'arb va Sharq ma'rifatchiligi yuzaga kelishi o'zaro uyg'un ijtimoiy-tarixiy va madaniy-ma'rifiy omillar natijasidir. Ma'rifatchilikdan ijtimoiy hayotni

¹⁷ Сульгинский С.В. Космические легенды Востока Ростов на Дону. 1992. – С. 5.

¹⁸ Дюришин Д. Адабиётни киёсий ўрганиш назарияси. Таржимон ва сўзбоши муаллифи К.Жўраев. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2018. – Б. 60.

¹⁹ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 39; Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002; Саидов У. Шарқ ва Ғарб: маданиятлар туташган манзиллар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009; Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 15; Ҳамдамов У. Қосимов А. Жаҳон адабиёти. – Тошкент: Баркамол файз медиа, 2017. – Б. 352.

isloh etish va undan siyosiy mustaqillik uchun kurashishgacha bo'lgan jarayonni bosib o'tgan Turkiston jadidchilik harakati shakllanishi va takomilida Yevropa ma'rifatchiligining ta'siri katta bo'lgani buning isbotidir.

2. G'arb ma'rifatchiligi va Turkiston jadidchilik harakatining maqsadlari ham uyg'un: jamiyat hayotining barcha jabhalarini ilm-ma'rifat vositasida isloh etish. Ushbu maqsadni amalga oshirishda ikkala harakat namoyandalari nashriyot-matbaa imkoniyatlaridan keng foydalangan. Yangi g'oyalar aks etgan asarlarini ana shu matbaalarda o'quv adabiyotlari, risolalar shaklida chop ettirgan. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori va Ibrat matbaalari buning dalilidir.

3. Har ikkala harakatning ma'rifat yo'lidagi amaliy faoliyati odamlar ongida o'zgarish yasadi. Matbuot, teatr va yangi usuldagi maktablar millat tafakkurini yangiladi. Yangi zamon badiiy-estetik ideali tasviriga qaratilgan adabiyot maydonga keldi. Bu adabiyot ijtimoiy-siyosiy islohotlarning ta'sirchan vositasiga aylandi, shaxs ongi va jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qildi.

4. Turkiston jadidchilik harakati g'oyalari milliy turmushning barcha sohalariga – maorif, madaniyat, din, iqtisodiyot va ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar rivojiga birday ta'sir etdi. Millatni ma'rifatli qilish, yurti taraqqiy ettirish va milliy ozodlikka erishish maqsadlariga yo'naltirilgan jadid adabiyoti maydonga chiqdi.

Turkistonda jadid adabiyoti shakllanishi va rivojida tarixiy sharoit bilan birgalikda, XIX asrning oxirgi choragida yuzaga kelgan yangicha ma'rifatparvarlik g'oyasi ta'siri katta bo'ldi. Ushbu g'oya kelib chiqishining asosiy sababi, avvalo, rus istilochilik siyosatining keskinlashuvi bo'lsa, ikkinchidan, milliy hurlik harakatlari edi. Millatparvar ziyolilarning ta'qib va qatl qilinishi oxir-oqibatda bu harakatning tugatilishiga olib keldi. Turk olimi Husayn O'zboy fikricha: "Yozilgan yillarda qo'ldan qo'lga o'tib o'qilgan, mashhur bo'lgan "Go'zal Farg'ona", "Go'zal Turkiston", "Buzilgan o'lkaga", "Yong'in", "Qo'zg'olish", "Bas endi", "To'fon" kabi 1920-yildan keyin bitilgan she'rlarni diqqatga olmasdan Cho'lpon haqida hukm chiqarmoq mumkin emas. Cho'lpon she'rlaridagi G'arb va Sharq iboralari, masalan, G'arb imperializmini va aynan Rusiya bosqinchilarini, jumladan, bo'lsheviklarni ham bildirmoqda; Sharq esa, mahkum, mazlum millatlarni, Turkistonni anglatmoqda; baynalmilal kurash, ishchi sinfi kabi iboralar ham zolimlarga qarshi kurashuvchilarning timsolidir"²⁰.

XX asrga kelib Sharq-u G'arb muammosi keskin ma'naviy va ijtimoiy-tarixiy qarashlar maydoniga aylandi. Sharq mamlakatlarning G'arb imperialistlari tomonidan bosib olinishi ularning ijtimoiy-tarixiy va madaniy taraqqiyotini ortga surdi. Natijada Sharq ozodligi va hurligi yo'lidagi harakatlar kuchaydi. Shuning uchun badiiy ijodda ham siyosiy mavzu yetakchilik qildi. Sharq va G'arb xalqlarining turmush tarzi qiyoslana boshladi va bunday tafovutlar sababini aniqlash tamoyili kuchaydi. Bu esa, o'z navbatida, milliy uyg'onish davrini yuzaga keltirdi. O'zbek yangicha ma'rifatparvarlik va jadid adabiyoti ana shu ijtimoiy-madaniy, adabiy-estetik zaminda dunyoga keldi.

²⁰ Хусайн Ўзбой. Чўлпоннинг шеълари. Матн. Таржима. Тадқиқот. – Турк маданиятини ўрганиш институти нашри. – Анқара, 1993. – Б. 63.

Ushbu bobning ikkinchi faslida **“Milliy adabiyotimizning poetik yangilanishida jahon estetik tafakkurining ta’siri”** masalasi tahlilga tortilgan. XIX yuzyillik oxiri va XX asr o’rtalaridagi 50-60 yillik davr ko’hna va boy o’zbek adabiyoti tarixida juda muhim qimmatga ega. Chunki adabiyot, avvalo, xalqimiz hayotida sodir bo’lgan og’ir musibat – o’z mustaqilligini yo’qotishi hodisalarini loqayd kuzatishdan, uning fojiali natijalarini chuqur his etish va hurriyat uchun kurashga chaqirishgacha bo’lgan masofani bosib o’tdi. Ikkinchidan, adabiyot bo’lib o’tgan davr voqea-hodisalari ta’sirida g’arblashdi; mazmun-mohiyati kengaydi; davriy matbuot va teatrning dunyoga kelishi bilan yangi adabiy tur va janrlar yaratildi. An’anaviy poetika va u bilan bog’liq timsollarga yangi mazmun kirdi. Yakkahukmron aruz yoniga qadimgi barmoq vazni chiqdi. Sarbastda she’rlar bitildi va mansuralar yozildi. Umuman, zamonaviy realistik adabiyot paydo bo’ldi. Bu davr adabiyoti avvalgilardan tubdan farq qiladi. Adabiy jarayon XVII-XIX asrlardagi kabi uch xonlik doirasida emas, Rusiyaga mutlaq tobe Turkiston general gubernatorligi va yarim vassal Buxoro va Xivada uyushdi. Bu hol adabiyotimizning til xususiyatlaridan janrlar poetikasigacha ta’sir qildi.

Bu adabiyot o’zbek xalq og’zaki ijodi, mumtoz adabiy an’analar hamda jahon adabiyoti yutuqlarini sintez qilgani bilan alohida ajralib turadi. Unda an’anaviy adabiy tur va janrlar davom etdi. She’riyat asosiy tur sifatida saqlanib, asosan, aruzda ijod qilindi. G’azal, musammat, ta’rix, muammo, ruboiy hamda tuyuq faol janrlar edi. Masnaviy, ayniqsa, mavqeyini saqlab qoldi. Sayohatnoma shakllandi va takomilga erishdi. Bu davr she’riyatida ham ishqiy mavzu yetakchilik qildi. Irfoniy mazmundagi nazm namunalari Yusuf Saryomiy, Vasliy Samarqandiy va Ziyovuddin Haziniy singari shoirlar ijodining asosini tashkil etdi. Hajviy mazmundagi nasr va nazm namunalari ko’plab yaratildi. Ijodiy metod ham yangilandi, realistik talqin kun tartibiga chiqdi. Milliy matbuot va litografiyaning yuzaga kelishi adabiyotni xalqqa yaqinlashtirdi. Badiiy publitsistika paydo bo’ldi, ocherk shakllandi. “80-yillarda L.N. Tolstoy, 90-yillardan A.S. Pushkin, A.A. Krilov nomlari Turkistonga kirib keldi. 1887-yili L.N. Tolstoyning “Odamlar nima bilan tirik” hikoyasi, 1899-yili Pushkin tavalludining 100 yilligi munosabati bilan uning “Bog’chasaroy fontani”, “Shoir” asarlari tarjimasini “Turkiston viloyatining gazetasi” sahifalarida bosildi. So’ngroq Saidrasul Aziziy (1866-1933), Aliasqar Bayramali Kalinin, Abdulla Avloniy (1878-1934) kabi mualliflarimizning usuli jadid maktablari uchun tuzilgan darsliklariga kiritildi²¹. Albatta, bunday tarjimalar milliy adabiyotimizning poetik yangilanishiga ta’sir etdi. Jahon adabiyotining yetakchi asarlaridagi mazmun, shakl va janrlar ma’lum miqdorda o’zbek adabiyotiga ko’chdi. Jadid shoir-u adiblar ijodi orqali milliy adabiyotimizga yangi nafas, yangi janrlar va yangicha qarashlar kirib keldi. Bunda Cho’lpon, Behbudiy, Abdulla Qodiriy va Abdurauf Fitratning hissasi, ayniqsa, katta. Roman janrining shakllanishida Cho’lponning “Kecha va kunduz” asari ham yetakchi o’rinni egallaydi. Bunda adibning jahon adabiyotidan qilgan tarjimalari asos vazifasini o’tadi. Zero, “Asriy adabiyotg’a yangidan kira boshlag’on xalqlar adabiyotining ro’mon qismini tarjima bilan ochqonlar. Ya’ni qay-u bir xalqning

²¹ Қосимов Б. ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 13.

adabiyotida yaxshi ro‘mon bo‘lsa, uni tarjima bilan xalqni va yozuvchilarni u yo‘lg‘a o‘rgata borg‘onlar. So‘ngra-so‘ngra unday ro‘monlarning taqlidini o‘z hayotlariga uydirib chiqora borg‘onlar”²². Asar qahramonlari ruhiyati o‘zgarishi, ularning nimadandir ta’sirlanishi va o‘zgarishi mumkinligi, inson mudom evrilishda bo‘lishi ilk bor Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida kuzatiladi.

“Turon” teatriga rahbarlik qilgan kezlarida Cho‘lpon sahna san’ati va dramaturgiyani puxta o‘rgangani bois 1924-yili Moskvada tashkil etilgan o‘zbek drama studiyasiga adabiy emakdosh sifatida yuborildi. U rejissyorlarning ma’ruzalari va sahna asarlarini tarjima qildi, rus adabiyoti bilan yanada yaqindan tanishdi. Tolstoyning “Tirilish” romanidan, ayniqsa, katta taassurot oldi. “Kecha va kunduz” yaratilishiga shu roman yo‘l ochdi. “Tirilish” va “Kecha va kunduz”dagi sud jarayoni qiyosi buni tasdiqlaydi. Har ikki yozuvchi sud hujjatlarini mufassal tavsiflaydi; har ikkala sudlanuvchi odam zaharlashda ayblanadi (aslida, ikkalasi ham idishda zahar borligini bilmagan). Guvohlar faqat ayblanuvchini qoralaydi. Cho‘lpon ijodda mumtoz o‘zbek va jahon adabiyotiga xos poetik vositalarni san’atkorona qo‘llagan. O‘zbek adabiyotida birinchi roman dilogiya hisoblangan “Kecha va kunduz” buning isbotidir. Zero, “Kecha va kunduz” o‘zbek nasridagi ilk ijtimoiy-psixologik roman sifatida dunyoga kelgan”²³.

XX asr 30-yillaridan o‘zbek she’riyatiga Yevropa adabiyotiga xos sonet kirib keldi. Rossiyada ilk bor XVIII asrda V.Trediakovskiy, A.Sumarokov, keyinchalik A.Pushkin, M.Lermontov va A.Fet, XX asrda A.Blok, B.Bryusov va A.Axmatova sonet yozgan. She’riyatimizda Cho‘lpon sonetlarining o‘rni alohida. “Men va boshqalar”, “Chechak”, “Javolash” nomli sonetlarida lirik kechinma o‘ziga xos ifodalangan. “Men va boshqalar” she’ri o‘zbek qizining ayanchli turmush tarzidan so‘zlaydi. She’rda erksizlik bois qalbi og‘rigan qizning yig‘lashi, ingrashi, qanoti bo‘lsa-da ucholmasligi, ovozi bo‘lsa-da so‘zlay olmasligi, qul kabi hayot kechirishi, unga hayvondek muomalada bo‘linishi qoralanadi:

Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman,
O‘ynagan boshqalar, big‘lagan menman.
Erk ertaklarini eshitgan boshqa,
Qullik qo‘shig‘ini tinglagan menman²⁴.

Milliy adabiyotimiz uchun yangi adabiy tur – dramaning poetik tafakkur yangilanishidagi o‘rni alohida. Drama taraqqiyotining ilk bosqichida qo‘shiq va raqslar, turli harakatlarni o‘z ichiga olgani ma’lum. Turkistonga rus, tatar, ozarbayjon teatrlarining kirib kelishi antik davrda paydo bo‘lgan qadimgi yunon teatri ko‘rinishida yashab kelayotgan milliy teatr madaniyatining, oradan ikki ming yildan ko‘proq vaqt o‘tib, mazmun va shakl jihatdan yangi darajaga ko‘tarilishi uchun zamin yaratdi. Behbudiy, Qodiriy, Avloniy, Fitrat dramalari zamonaviy milliy dramaturgiya shakllanishi va takomilini belgiladi. Bunda, shubhasiz, milliy dramalarga hamda rus va turkiy tillardan tarjima qilingan sahna asarlariga yozilgan taqrizlar, ularning milliy matbuotda chop etilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

²² Солихов М. Ўзбек театри тарихи учун материаллар. – Тошкент: ЎзССР Давлат нашриёти, 1935. – Б. 97.

²³ Куронов Д. Рухий дунё таҳлили. – Тошкент: Хазиана, 1995. – Б. 3.

²⁴ Cho‘lpon. Ko‘klam ruhi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 27.

Cho'loning Ozarbayjon adibi Husayn Jovid qalamiga mansub "Iblis" va "Shayx San'on" dramalariga taqrizlar yozgani²⁵ nafaqat milliy teatr san'ati, balki teatrshunoslikning ham rivojlangani isbotidir. Cho'lon zamonaviy publitsistika takomiliga ham katta hissa qo'shdi. Uning adabiy-tanqidiy, teatr va san'atga oid, matbuot haqida, ijtimoiy-siyosiy hayotga oid maqolalari ushbu fikrni tasdiqlaydi. Ijodkorning "Adabiyot nadir", "Muhtaram yozg'uvchilarimizg'a", "Adabiyot kechasi", "Ulug' hindiy" kabi adabiy-tanqidiy maqolalari adabiyotshunoslik masalalari konseptual asosda yoritilgani jihatidan qimmatlidir.

"Cho'lon she'riyatida dunyo adabiyoti tajribalarining poetik sintezi" deb nomlangan ikkinchi bobning birinchi faslida **"Poetik obraz takomilida Sharq she'riyati an'alarining o'rni"** tadqiq qilingan. Milliy she'riyatni yangilash Cho'lon ijod konsepsiyasining negizini tashkil etadi. Lekin bu ulkan ishni Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy kashfiyotlarni o'rganmay va ularni ijodiy qayta ishlamay turib, amalga oshirish imkonsiz edi. "Ishqiy g'azaliyotni yangicha ruh bilan boyitganlardan biri Cho'lon bo'ldi, – deb yozadi Nodira Afoqova. – Bu yangichalik faqat davr bilan – Cho'lon she'riyati o'z maslakdoshlari she'riyatidan sal keyinroq – adabiyotning asosiy parametrlari o'zgargan davrda bunyod bo'lganligi bilangina bog'liq emas. Bu – Cho'loning badiiy tafakkur tarzi hamda olamni badiiy idrok va ifoda etish prinsiplari bilan bog'liq deb qarash lozim"²⁶. Haqiqatan, mumtoz shoirlar va Cho'loning estetik tafakkuri hamda olam va odamni idrok etish mezonlari farq qiladi. Lekin ana shunday o'ziga xos dunyoqarash va estetik mezonlar shakllanmog'i uchun Cho'lon o'zigacha bo'lgan milliy va jahon adabiyotini chuqur o'rganishi, mavjud an'alarni yangilamog'i zarur edi. Shoir buyuk Alisher Navoiy she'riyatidagi fasohat va balog'at sirlarini o'rgandi. Poetik obrazni yangilashda Navoiy san'atxonasi tajribalaridan istifoda etdi. Ayrim adabiyotshunoslar: "O'zimning yo'lsizlig'imdan biroz so'zlab o'tayin: Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiymen: bir xil, bir xil, bir xil! Ko'ngil boshqa narsa – yangilik qidiradir"²⁷, tarzidagi fikriga ko'ra Cho'lonni o'zbek mumtoz she'riyati va uning buyuk namoyandalari merosiga noxolis qaragan, deb hisoblaydilar. Aslida, unday emas. Shoirning Navoiyga doir qarashlari buyuk salafga yuksak ehtiromidan dalolat beradi. Yuqoridagi fikr mumtoz she'riyatga nopisandlik yoki bu an'anani inkor etish emas, uni yangilash, takomillashtirish, o'zi yashagan davr ruhiyatiga mos shakl va ohanglar izlash ehtiyoji izhoridir. Aks holda shoir: *"Bu kungi yangi o'zbek adabiyoti va uning bu kungi sodda shevasi, menimcha, o'sha chig'atoy shevasidan o'zga emasdir"*²⁸, demagan bo'lar edi.

Cho'lon she'riyatidagi juda ko'p obraz, ramz va timsollar mumtoz adabiyotimiz, xususan, Navoiy lirikasidagi obrazlarning yangilanishi natijasida

²⁵ Чўлпон. Иблис. Шайх Санъон. /Асарлар. Тўрт жилдлик, IV жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 81-86.

²⁶ Афоқова Н. Ўзбек жаҳид адабиётида шеърӣй шакллар тараққиёти тамойиллари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 163.

²⁷ Чўлпон. Улуғ ҳиндий. /Асарлар. Тўрт жилдлик, IV жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 33.

²⁸ Чўлпон. 500 йил. /Асарлар. Тўрт жилдлик, IV жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 20.

yaratilgan. Shulardan biri “kishan” ramzidir. Bu ramz Navoiy lirikasida “qayd etmoq”, “zanjir”, “g‘ul” (“ag‘lol”) tushunchalari orqali ifodalanib, nafsni jilovlash, ishq zanjiri, gunohlar kishaniga bog‘lanish kabi ma’nolarda qo‘llanadi. Masalan, quyidagi g‘azalda “itlari zanjiri” istiorasi tasavvufiy ma’noni ifodalab kelgan:

Qayd etarda ul pari ko‘yida men devonani,
Itlari zanjiri birla koshki band etsangiz²⁹.

“Qayd etmoq” – kishanlamoq, “devona” – ishq yo‘lida aqldan ozgan kishi demakdir. Ya’ni buyuk shoir ushbu baytda: “Agar ul pari ko‘yida men devonani kishanlamoqchi bo‘lsangiz, koshkiydi, itlarining zanjiri bilan bog‘lasangiz”, degan irfoniy mazmunni betakror badiiyat bilan ifodalagan. It – sadoqat ramzi. Yorni muhofaza qiluvchi it zanjiri bilan bog‘lanish – oshiq uchun baxt. Negaki, it yor jamolini har doim ko‘rish sharafiga ega, uni muhofaza etadi. Mumtoz she’riyatda “qayd etmoq”, “band etmoq”, “zanjir” ma’nolarida qo‘llangan “kishan” Cho‘lpon nazmida eng faol va tabiiyki, ijtimoiy ma’noni ifodalagan obrazga aylandi. Jumladan, “Kishan” she’rida ijodkor mana bunday yozadi:

Kishan, gavdamdagi izlar bukun ham bitgani yo‘qdir!
Temir barmoqlarningning dog‘i butkul ketgani yo‘qdir!³⁰

She’r 1922-yil 17-sentyabrda Toshkentda yozilgani, dastlab “Tong sirlari” to‘plamida, so‘ng “Haqiqat” (1922-yil 2-son) va “Inqilob” (1922-yil 6-son) junallarida e’lon qilingani e’tiborga olinsa, shoir “kishan” ramzi zamirida bir vaqtning o‘zida Chor Rossiyasi va sho‘rolar istibdodi ma’nosini ifodalagani ayon bo‘ladi. “Kishan” undalmasi shoir nidosini anglatadi. Bu nido zaminida cho‘ng hasrat va anduh akslanib, “gavdasidagi izlar bukun ham bitmagan”i, “temir barmoqlar dog‘i butkul ketmagani”ga doir fikrlar biri ikkinchisining davomi bo‘lgan ikki mastamlaka zulmi haqida so‘z ketayotganini anglatadi. Shoir talqiniga ko‘ra, kishan bor joyda zulm hokim. Uning quchog‘i – mudhish, manhus, sovuq. U nainki muayyan shaxs yoxud xalq, balki bashariyat tarixida qonli dog‘lar qoldirgan. Bu orqali she’rda garchi birinchi shaxs tilidan so‘zlanayotgan bo‘lsa ham, shoirning o‘zi mansub millatgina emas, balki insoniyat erkini jilovlaydigan dahshatli kuchga cheksiz nafratini talqin etgani oydinlashadi. Keyingi: *“Yumilmas ko‘zlaringning har biri bir elni qahr aylar, Faqat bir borlig‘ingdirkim, butun borliqni zahr aylar”* misralari ana shu nafrat tuyg‘usi nechog‘liq kuchli ekanini bildiradi. “Kishan – istibdod iskanjasidagi yurt ramzi. Cho‘lpon eng faol qo‘llagan bu poetik ramz orzudan ko‘ra ko‘proq armonni ifodalagan. Zero, kishan va ozodlik birgalikda mavjud bo‘la olmaydi”³¹.

Har qanday zulm va qabohat iskanjasida ham insonga tasalli beradigan, uning orzulariga qanot, vujudiga quvvat bag‘ishlovchi kuch bu – umid. She’rdagi erksizlik, temir barmoqlar, qonli dog‘lar, qahr va zahr talqini fojeiylik ifodasi bo‘lsa, umid tuyg‘usi yorug‘likka, ozodlikka, istiqloлга ishora ekani jihatidan

²⁹ Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Фавойид ул-кибар. / Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2011. – Б. 222.

³⁰ Cho‘lpon. She’rlar. I jild. – Toshkent: Akademyashr, 2021. – B. 90.

³¹ Jabborov N. Cho‘lpon she’riyatidagi ayrim ramzlar poetikasi. /“Yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi va takomilida Abdulhamid Cho‘lpon ijodining o‘rni”: xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Andijon, 2022. – B. 116.

qimmatlidir. Kishan bor joyda qulf ham hozir va u ochilmaguncha, kishanlangan shaxs erkin bo‘la olmaydi. *“Faqat har tebranishdan qurtulishlikni umid etdim”* – ushbu satr Cho‘lpon qalbidagi ozodlikka intilish tuyg‘usining naqadar kuchli ekani isbotidir. “Qutulish” so‘zining “qurtulish” shaklida ifodalangani, birinchidan, Cho‘lpon asarlari tilining o‘ziga xosligini ifodalagan, ikkinchidan, vaznda saktalik bo‘lmasligini ta‘min etgan. *“Kishan, gavdamdagi dog‘ing hanuz ham bitgani yo‘qdir”* – bu misra erkidan mosivo etilgan kishi yoki millat qalbida asorat qoldirgan dog‘ni aslo unutmasligi ifodasidir. *“Faqat butkul qutulmoqqa umidim endi ortiqdir!..”* – umidi so‘ngan odam zohiran yashayotganday tuyulsa ham, tirik hisoblanmaydi. Cho‘lpon ana shu umid unda, to‘g‘rirog‘i, millat qalbida so‘nmagani haqidagi xulosa bilan yakunlaydi she‘rni. Bunday talqin, tabiiyki, “kishan” obrazining ma‘nosini kengaytirgan, uning takomiliga xizmat qilgan.

Cho‘lpon nainki Alisher Navoiy asarlarini, balki o‘zbek mumtoz adabiyotining boshqa vakillari ijodiy an‘analarini ham qunt bilan o‘rgandi, jahon poeziyasi yutuqlari bilan sintez qildi. Mashrab va Cho‘lpon she‘rlaridagi xalq obrazi bilan bog‘liq uyg‘unliklar shoirning ulug‘ salafi ijodidan ko‘p narsa o‘rganganini ko‘rsatadi. Shoh Mashrab muxammaslaridan birida xalq va uning ahvoli haqida quyidagilarni yozgan edi:

Muhabbat dashtida ovvora bo‘lgan xalqni ko‘rdim,
Ko‘zi vaqti sahar sayyora bo‘lgan xalqni ko‘rdim,
Tani dard-u alamdin yora bo‘lgan xalqni ko‘rdim,
Dili tig‘i sitamdin pora bo‘lgan xalqni ko‘rdim,
Zulm tug‘yon etibdur, har birisi bexabar, tanho³².

Mashrab muxammasidagi mazkur satrlar Cho‘lpon she‘rlariga ruhan yaqin ekani isbot talab qilmaydi. Xalqning “Tani dard-u alamdin yora”, “dili tig‘i sitamdin pora”, “zulm tug‘yonidan bexabar”ligi holatlari har bir zamonda ham bo‘lishi mumkin. Lekin Mashrab buni betakror tashbehlar (“Ko‘zi vaqti sahar sayyora”), istioralar (“muhabbat dashti”, “tig‘i sitam”) va sifatlashlar orqali real voqelikning badiiy ifodasi o‘laroq nazmga solgan. Cho‘lponning “Xalq” she‘rida esa xalqning qudrati nechog‘liq katta ekani, u nainki zulmdan jabr ko‘rib, sabr qilib yashashi, balki haqsizlik va istibdodga barham berishi ham mumkinligi talqin etilgan. Turkistonning mustamlaka girdobiga tushishi, millatning xor-zabun holati shoir qalbini o‘rtagan. Mashrab muxammasida mazlum xalqning real holati tasvirlangan bo‘lsa, Cho‘lpon she‘rida, aslida xalq qanday bo‘lishi kerakligi, muallifning u haqdagi orzulari, ideallari ifodalangan. Shoir xalqni dengizga, to‘lqinga va kuchga mengzaydi. U isyon, olov va o‘chdir. To‘g‘rirog‘i, Vatan va millat ozodligini orzu qilgan shoir xalqning shunday bo‘lishini istaydi. Uningcha, xalq qo‘zg‘alsa, to‘xtatadigan, uning istagini yo‘qqa chiqaruvchi kuch mavjud emas. Negaki, “Xalq isyoni saltanatni yo‘q qildi, Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi...”. Keyingi satrlarda yuqoridagi muqaddimadan ko‘zlangan maqsad, shoirning ijodiy niyati ifodalangan. Dastlabki misralardagi har bir so‘z, har bir jumla ana shu ijodiy niyat ifodasiga xizmat qilgan. Shoir fikrining o‘quvchi

³² Mashrab, Бобораҳим. Куллиёт. – Тошкент: Muharrir, 2017. – Б. 406.

qalbiga kuchliroq ta'sir etishini ta'minlashga qaratilgan:

Xalq istagi: ozod bo'lsin bu o'lka,

Ketsin uning boshidagi ko'lanka.

Ana shu o'rinda Mashrab va Cho'lpon she'rlaridagi asosiy farq yuzaga chiqadi. Bu farq, aslida, ikki shoir ijodiy niyatidagi o'ziga xoslik hosilasidir. Mashrab mazlum xalqning ahvoli ruhiyasini, zulm tug'yon etganidan bexabar, har biri tanho, ya'ni maqsad yo'lida birlashmagan xalqning real holatini tasvirlash, tagmatnda esa zulmga nisbatan murosasiz bo'lish zarurligini ifodalagan. Shoir she'rida tashqi kuch – mustabid talqini yo'q. Ichki g'anim – nafs bandalarining haqsizligiga isyon ruhi talqin etilgan. Cho'lpon she'rida esa, tashqi yov – mustamlakachi zolimlarga qarshi kurashga da'vat ifodasi yetakchilik qiladi. Shoir xalqning xos belgilarini, agar birlashsa, katta qudratga ega bo'la olishini sifatlaydi. U qo'zg'alish, ko'pirish, qaynash xususiyatlariga ega. Intilish, hatto hovliqish, jo'shqinlik ham unga xos. Lekin eng muhimi, yo'qlikka – vatanparvar, millatparvar farzandlarining qatag'on etilishiga, ochlikka barham bera oladi. O'z yurtini har narsaga to'q eta biladi. Mana, Cho'lpon xalqni qanday tasavvur etadi. Yakuniy xulosa shoir ijodiy niyatining amaliy ifodasiga qaratilgan. Shoir xalqsiz, uning birligisiz Vatan va millatni yuksaltirish imkonsiz ekanini chuqur anglaydi. “Xalq ichi” birikmasi – shoir ijodiy niyatining kaliti, estetik idealining asosi. Chunki shoir fikricha, butun kuch xalq ichidan olinadi. Shu bois u xalq ichiga quchoq ochib borishga da'vat etadi. E'tiborlisi, bu ikki she'r qanchalik farqlarga ega bo'lmasin, xalq mavzusi, xalq obrazi barcha davrlarda ham o'zbek shoir-u adiblarining diqqat markazida bo'lganidan dalolat beradi.

Dissertatsiyada Cho'lpon she'riyatida, bundan tashqari, Uvaysiy va Furqat lirikasidagi obrazlarning yangilanishi bilan bog'liq tahliliy qarashlar berilgan. Cho'lpon eronlik shoir Abulqosim Lohutiy, xitoylik ijodkorlar Lu Szin Van va Vey In Yu she'rlaridan ham tarjimalar qilib, tajriba o'rgangani, shoir she'riyatidagi obraz yangilanishining asosiy sabablaridan biri aynan shular ekani isbotlangan.

Mazkur bobning ikkinchi fasli **“G'arb she'riyati tajribalari va obraz takomili”** deb nomlangan. Cho'lpon rus tili va adabiyotini ona tili va o'z xalqi adabiyoti kabi chuqur o'rgandi. Davr ijtimoiy muhiti talabidan tashqari shoir uni “madaniy olam”ga kirish vositasi sifatida tushundi. Rus adiblari turkiy xalqlardan ancha avval G'arb adabiyotining nodir namunalarini o'z tillariga tarjima qilgan, u orqali jahon badiiy tafakkuri yutuqlari bilan tanishish mumkin edi. Bundan tashqari, jahon adabiyotidagi yetakchi g'oyalar, motivlar va uslublar rus adabiyotida juda tez bo'y ko'rsatar, ularni bilmoq zarur edi. Shoirning ingliz, fransuz, olmon va boshqa xalqlar adabiyotidan qilgan tarjimalari rus tili orqali amalga oshirilgan. Ijodkor rus klassiklari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish orqali bu adabiyotning ta'sirchan usullarini egallab oldi. Shoir ijodida u tarjima qilmagan ko'pgina ijodkorlar asarlarining ham ta'siri kuzatiladi.

Cho'lponga Pushkin va Blok she'riyati ta'siri, ayniqsa, kuchli. A.S.Pushkinning “Solovey i roza” she'ri Sharq adabiyotida keng tarqalgan obrazlar – bulbul va gul (oshiq va ma'shuqa) munosabatlari asosiga qurilgan. She'rda bulbulga nisbatan “восточный соловей” (Sharq bulbuli) sifatlashining qo'llanishi shunga ishora qiladi. She'rda gul – bedard va jafokor ma'shuqa, bulbul sadoqatli

oshiq sifatida tasvirlanishi an'anaviy Sharq motivlarini eslatadi. She'rning masnaviyga xos qofiyalanishi (aa, bb, vv, gg) ham muallif Sharq adabiyoti an'alarini yaxshi bilganidan dalolatdir. Bular barchasini yaxshi his qilgan va anglagan Cho'lpon she'rni Sharq she'riyatining xushohang tizimi – aruzda (hazaji musammani solim) tarjima qilgan. Asliyatdagi qofiyalanish tizimi saqlangani tarjima yutug'ini ta'minlagan. She'rda oshiq va ma'shuqa obrazlari talqin etilishi barobarida shoir va she'riyat mavzusi ham qalamga olingan. Bu mavzu tarjimada Cho'lpon tomonidan nozik ishoralar orqali o'z ifodasini topgan:

Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim, sen ham

Yonarsan, o'rtanarsan, dod etarsan tinmayin bir dam.

XX asr boshidagi rus she'riyatining katta yutug'i sifatida Aleksandr Blok ijodini ko'rsatish mumkin. Cho'lpon she'riyatidagi ko'p xususiyatlar aynan shu shoir ijodidagi fazilatlarini namoyon etadi. Blokning: *“Ko'ngil jimdir. Sovuq ko'kda, Qarab ung'a yonib turg'an Hanuz-xolo u yulduzlar”* satrlari bilan boshlangan she'ri 1922-yili tarjima qilinib, chop ettirilgan. Bu esa shoirning Blok she'riyati bilan ancha yoshligidan oshno bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, unda Cho'lpon she'riyatining umumiy ruhi aks etgan. Yuqoridagi she'rda anjanbeman hodisasi kuzatiladi. She'r misralaridagi sintaktik va ritmik qismlarning mos kelmasligi, ya'ni bir misradan o'rin olishi kerak bo'lgan gap uzvlarining oldingi yoki keyingi misraga ma'lum bir g'oyaviy-badiiy maqsadni ko'zlagan holda ko'chirilishiga asoslangan bu uslub A.Blok she'rlarida faol istifoda etilgan:

Ko'ngil jimdir. **Sovuq ko'kda**

Qarab ung'a yonib turg'an

Hanuz-xolo u yulduzlar.

U jim. **Lekin fig'onlarg'a**

Quloq bergan va ko'z tikkan

Uzoqlarg'a – yiroqlarg'a!..

Asliyatdagi anjanbeman usuli tarjimada ham to'liq saqlangan. Bu uslub Cho'lponning 20-yillardagi she'rlarida ko'proq uchraydi. Shoir ijodida ot va sifat so'z turkumlari bilan bog'liq anjanbeman boshqalariga nisbatan ko'proq qo'llanilgan. Masalan,

Shom azoni... **Muazzinning yo'sunsiz,**

Kuchsiz tovushi titrabgina cho'zildi³³.

Qop-qorong'i kecha... **Chiroqlardan**

So'nggi nur ketdi, u yiroqlardan³⁴.

Cho'lponning rus adabiyotiga munosabatini faqat ijtimoiy-siyosiy voqelik bilangina bog'lash yaramaydi. Shoirning rus adabiyoti durdonalarini diqqat bilan o'rgangani undagi eng yaxshi badiiyat namunalarini saralab olishida, ayniqsa, yaqqolroq ko'rinadi. Masalan, u I.A.Krilovning “Bo'ri bilan Qo'zichoq” masalini hech qanday targ'ibotlarsiz o'qib tarjima qilganiga shubha yo'q. Shoir undan

³³ Чўлпон. Яна олдим созимни. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б. 464.

³⁴ Чўлпон. Яна олдим созимни. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б. 490.

nechog‘liq ta’sirlanganini jiyani Marg‘ubga bag‘ishlab yozgan “Do‘st va Dushman” she’rida ham ko‘rish mumkin:

Qo‘zi aytur: “Ey Marg‘ub, meni saqla bo‘ridan,

Men ham senga joy beray o‘tlog‘imning to‘ridan!”

Bo‘ri aytur: “Ey Marg‘ub, qo‘zichoqni menga ber,

Shunda seni maqtarman: Marg‘ub – botir, Marg‘ub – sher!”

She’r shu tartibda mubohasa-munozara shaklida davom ettirilib, oxirida Marg‘ubning: “Ey bo‘ri, sen dushmansan, sen olchoq! Mening sevgan do‘stimsan, ey barralik qo‘zichoq!..” so‘zlari bilan tugatiladi. Shuningdek, Cho‘lponning ayrim she’rlarida o‘sha davr she’riyatida dongdor bo‘lgan rus shoirlari S. Yesenin va V.Mayakovskiy ta’siri ham seziladi.

Ma’lumki, Cho‘lpon rus tili orqali V.Shekspirning “Hamlet” tragediyasini nasrda o‘zbekchalashtirgan. Tarjima o‘zining davridayoq tahlil va tanqid etilgan³⁵. Cho‘lpon bunga javoban gazetasining 1936-yil 28-iyul sonida “Boshqarmaga xat” maqolasini e’lon qilgan. Shoir “Hamlet”ni nasrda tarjima qilganini ta’kidlasa, Nazir To‘raqulov nazm bo‘yicha tekshirganini aytib, “tarjuma bilan tarjuma orasida, ayniqsa, tizmalı bilan sochmalı orasida katta farq bor”ligi³⁶ haqida yozadi. Cho‘lpon ingliz adabiyotini yaxshi bilgan Lan ismli kishi solishtirib, ko‘p joylarini tuzatib bergani, u nusxa o‘zining qo‘lida ekani haqida ma’lumot beradi. Ayon bo‘ladiki, shoir tarjimaga mas’uliyat bilan yondashgan. Ushbu asar va uning tarjimasi Cho‘lponning G‘arb adabiyoti tajribalarini o‘rganishida hamda bu orqali ijodiy kamolotga erishuvida katta rol o‘ynagan.

She’riy shakllardagi yangilanish haqida so‘z ketar ekan, Cho‘lpon mansuralarini tilga olmaslik mumkin emas. Shoirning “Bahor avvallari” mansurasi “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 20-mart sonida bosilgani e’tiborga olinsa, professor Begali Qosimovning sochma she’r haqida: “Bunday tajriba adabiyotimizda ilk bor Hamza tomonidan qilingani ma’lum”³⁷ degan fikri bahstlab ekani ayon bo‘ladi. Negaki olim Hamza “Sadoyi Turkiston” gazetasining 1914-yil 18-iyul sonida (Cho‘lpondan to‘rt oy keyin – Sh.H.) bosilgan bir she’riga “She’ri mansur” (nasriy she’r) ot qo‘ygani ta’kidlaydi. Mansura jadidona ruhda bitilgan. Unda tasvir tabiatdagi uyg‘onish bilan boshlanib, jamiyatni – millatni uyg‘onishga da’vat etish bilan yakunlanadi. Dissertatsiyada Cho‘lponning Henrix Heynedan qilgan tarjima she’ri ham tahlilga tortilgan.

Tadqiqotning **“Shoir estetik tafakkuri yangilanishida qardosh xalqlar she’riyati yutuqlarining roli”** deb nomlangan uchinchi bobi birinchi faslida *“Cho‘lponning turk va ozarbayjon adabiy an‘analariga munosabati”* o‘rganilgan. Cho‘lpon ijodida Turkiyadagi tanzimot adabiyoti namoyandalari g‘oyalari bilan uyg‘unlik kuzatiladi. Jumladan, Nomiq Kamol “Usmonli tili va adabiyoti haqida ba’zi mulohazalar” nomli maqolasida she’riyatning g‘oyalar rivoji va xalq ruhiyatiga ta’siri haqida fikr yuritadi. Devon adabiyotining voqelikka loqaydligi va sun’iyligini qoralaydi. Adabiyot ifoda usulini yangilash, xalq tiliga yaqinlashuv

³⁵ Тўрақулов Н. “Хамлет”га тухмат. / Қизил Ўзбекистон. 1936 йил 27 июль.

³⁶ Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Академнашр, 2016. – Б. 144.

³⁷ Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 367.

zaruratini ta'kidlaydi. Ayni xususiyatlar Cho'lpon ijodiy tutumiga ham xos. Lekin shoir tanzimot adabiyotiga mahliyo bo'lmagan, uni tahlil va tahqiq etgan. Uning fikricha: "Nomiq Kamoldan Ali Sayfi (A.Sayfiy)ga dovur usmonli adabiyotini o'quymen: yo ortuq yangilik, g'arblik, yo ortiqcha sharqlilik! Faqat usmonlichadan Rizo Tavfiqning ba'zi bir yangi shakl bilan eski ruhda aytgan so'fiylarcha she'rlarini o'quymen; shularga durustgina qonamen; undan keyin Yahyo Kamolning "Sa'dobod" ruhida ba'zi narsalari"³⁸.

Cho'lpon turk va ozarbayjon adabiyotini mukammal bilgan. Yunus Emro va Muhammad Fuzuliydan Mahmud Tavfiq Fikrat va Rizo Tavfiq Buloqboshigacha, Nomiq Kamoldan Abdulhaq Homid va Husayn Jovidgacha bo'lgan ijodkorlar asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan. Zamondosh turk va ozarbayjon shoirlari bilan bevosita ijodiy aloqalar o'rnatgan. Turk shoirlari Rizo Tavfiq Buloqboshi va Yahyo Kamol she'rlariga, ayniqsa, diqqat qaratgan. Ular ijodidagi o'zaro ta'sir poetik shakl va mazmunda ham, obraz va uslubda ham seziladi. Rizo Tavfiqning "G'arib holat" va Cho'lponning "Suygan choqlarda" she'rlari qiyosiy tahlili ular ijodidagi mutanosiblikdan darak beradi:

Hasrating alami ko'nglimdan toshar,
Hijron og'usiga to'lgan chog'imda.
Sitamdiya ruhim sening-la yashar,
Yig'lab, sukutlarga tolga chog'imda³⁹.

Cho'lponda:

Go'zallarning malikasi ekansa,
Buni sening ko'zlaringdan o'qidim.
O'qidim-da, istiqbolim qushiga
Xayolimdan oltin qafas to'qidim.

Har ikkala she'rda ham oshiqning iztirobli, dardli kechinmalari aks etgan. Rizo Tavfiq lirik qahramonning ayriliqdagi holatini "hasrat alami", "hijron og'usi" kabi istioralar, "sitamdiya ruh" sifatlashi orqali beradi. Cho'lpon satrlaridagi "go'zallarning malikasi", "istiqbol qushi", "oltin qafas" kabi istioralar ham ayni mazmunda. O'zaro uyg'unlik har ikki shoir lirik asarlari qiyosida yaqqolroq kuzatiladi. Tavfiq Fikratning "Tanish go'zal" va Cho'lponning "Go'zal" she'rlari qiyosi ham bunga misol bo'la oladi.

Yangilanish – o'zbek jadid va turk tanzimot adabiyotining mushtarak xususiyati. Cho'lpon va Yahyo Kamol she'rlari muqoyasasi ikki shoirning ruhiy-ma'naviy jihatdan yaqin ekanini tasdiqlaydi. Cho'lpon qalamiga mansub "Uyqu" va Yahyo Kamolning "Uyg'onmasin" sarlavhali she'rlari qiyosiy tahlili ham buning isbotidir.

Yahyo Kamolda:

Ey qayiqchi, asta yur, mohtob tag'in uyg'onmasin,
G'arq xayol dunyosiga shu tob, tag'in uyg'onmasin.

Cho'lponda:

Jim turing, shovqinlamang, uyqu ichida ul pari,

³⁸ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2016. – Б. 32.

³⁹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/rizo-tavfiq-fikrat-she'rlar.html>

Yurma, tek tur, ay shamol, yursang-da yur bir oz nari!⁴⁰

Birinchi she'r g'azal va ikkinchisi masnaviyda bitilgan. Har ikkala she'r ma'shuqaning uyqudagi oromiga hech kimning xalal bermasligi haqidagi murojaat bilan boshlanadi. Suyukli yor Yahyo Kamolda "mohtob", Cho'lponda "pari" istioralari vositasida tasvirlangan. Yahyo Kamol sevgilining uyqudagi holatini "G'arq xayol dunyosiga shu tob" tarzida obrazli ifoda etadi. Ya'ni inson o'yga cho'mganda hamma narsani, borliqni unutganiday, go'zal ham xayol daryosiga g'arq bo'lgan. Cho'lpon esa uyqudagi go'zalning oromiga shamolning ham xalaqit bermasligini so'raydi. "Yurma, tek tur, ay shamol, yursang-da yur bir oz nari!" satrida yorga bo'lgan adoqsiz mehr ifodalangan.

Cho'lpon turkiy dunyoning Alisher Navoiydan keyingi eng mashhur namoyandasi, ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliy ijodiga chuqur hurmat bilan qaradi. "Fuzuliy pichinglari" maqolasidagi: "Fuzuliy o'zi Bag'dodda o'tgan, janub turkchasi bilan yozgan bo'lsa-da, o'zbeklar orasida Navoiy bilan barobar tanilgan shoir"⁴¹, degan fikri buning isbotidir. Mazkur maqolasida Cho'lpon, birinchidan, o'zbek klassik adabiyoti tilining takomilida Fuzuliyning ta'siri sezilishi, ikkinchidan, devonidan tashqari Karbalo fojiasiga bag'ishlangan "Hadiqat ush-shuhado" nomli asari ham borligi, uchinchidan, Lutfiyning bir g'azaliga Fuzuliy tomonidan bog'langan muxammas qo'lyozmasini ko'rishga muvaffaq bo'lgani, to'rtinchidan, Habibiy g'azaliga bog'lagan muxammasini "Guliston"ga berishni rejalashtirgani, beshinchidan, Fuzuliy she'rlarida dardu-alam va chuqur ma'nolarga ega falsafiy nolish kuchli ekani haqida yozadi. Fuzuliy g'azallarining samimiyligi va otashinligi to'g'risida so'zlar ekan, Cho'lpon uning she'rlariga yuksak baho beradi. Bu xususiyat shoirning o'z nazmiga ham xosdir.

Cho'lpon Husayn Jovidning "Iblis" va "Shayx San'on" dramalariga taqriz yozgan. Husayn Jovid ijodi ozodlik, hurlik va erkinlik kabi mavzularni yoritgani jihatidan Cho'lpon asarlariga yaqin turadi. Hamidulla Boltaboyev fikricha: "Husayn Jovidning "Shayx San'on" (1914) fojeasi tez orada barcha turkiy o'lkalarga tarqaldi... O'zbek munaqqidlari bu asarning sahna talqinlari xususida maqola va taqrizlar yozdilar"⁴². Husayn Jovid mumtoz adabiyotning buyuk namoyandalari Nizomiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy an'alarini davom ettirish bilan birga, ozarbayjon adabiyotiga yangi ruh olib kirdi. Ayni jihatdan uning asarlari Cho'lpon estetik olamiga yaqin edi. Ana shu xususiyat ular ijodiy hamkorligi va asarlarining badiiy yuksakligi omilidir.

Bobning ikkinchi faslida **"Tatar-boshqird va qozoq ijodkorlari bilan hamkorlik samaralari"** masalasi tahlilga tortilgan. Jadidchilik – jamiyat hayotining barcha jabhalarini birday qamrab olgan, yangi adabiyotning shakllanishi va rivojini ta'min etgan siyosiy-ijtimoiy, adabiy-ma'rifiy harakat ekani ayon. Bu harakatning yana bir ahamiyatli jihati, erksevar ziyolilarni Vatan va millat manfaatlari yo'lida birlashtirganidir. Cho'lpon va maslakdoshlari jadidchilik harakatining asoschisi Ismoilbek Gaspralini

⁴⁰ Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2016. – Б. 68.

⁴¹ Чўлпон. Фузулий пичинглари. // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2023. №1. – Б. 107.

⁴² Boltaboyev H. Husayn Jovid va Fitratning mushtarak jihatlari. /"Husayn Jovid ijodi dunyo dramaturgiyasining yuksak namunasidir!": xalqaro konferensiya ma'ruzalari. – Toshkent, 2018. – B. 44.

o'zlariga ustoz va yo'lboshchi deb bilgan. Yurt ozodligi uchun kurashish, millat ma'rifatini yuksaltirish, adabiyot, teatr va maorifni shu maqsad sari safarbar etish Ismoilbek Gasprali uchun hayotiy a'mol bo'lgan. Cho'lponning "Ma'rifatparvar bobomiz Ismoil Gaspirinskiy hazratlari haqida ta'zianomamiz" nomli marsiyasi ana shu mutafakkir vafotiga bag'ishlangan. Shoir ustozini "muttakoi ahli islom", "bizi uyg'otg'uchi ustod", "iftixori ravnaqi islom", deya ta'riflaydi. Millat fidoyisi bo'lgan bu ulug' siymoning "eskilarni tormor qilgan"i haqida yozar ekan, bu orqali maktab-maorifni, o'qitish tizimini mutlaq yangilagani, milliy matbuotni yo'lga qo'ygani, millat hayotining barcha jabhalarini isloh etishga bor bilimi va salohiyatini safarbar etgani nazarda tutiladi.

Cho'lpon taraqqiyparvar sifatida tatar-boshqird va qozoq ziyolilari, shoir-u adiblari ijodiga katta qiziqish bildirgan. Ahmad Zaki Validiy To'g'onning 1913-1914-yillardagi Turkistonga ilmiy safari, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Shahrisabz shaharlarida bo'lishi, mahalliy qo'lyozma manbalarni to'plab, "Devoni Mashrab", "Qutadg'u bilig", "Tarixi Roqimiy" kabi adabiy-tarixiy asarlarni tadqiq etishdagi xizmatlari Cho'lponni befarq qoldirmaydi. Shoir uning ilmiy-ijodiy ishlari bilan batafsil tanishadi, o'zi uchun xulosalar chiqaradi. Zaki Validiy asarlarini mutolaa qilgan yosh Abdulhamid unga maktub yozib, ona shahri Andijonga taklif qiladi. Buyuk mutafakkir Nazir To'raqulov hamrohligida Cho'lponning ota uyiga keladi. Bu uchrashuv ikki ulug' ijodkorning turkiy xalqlar ma'rifatini yuksaltirish va taraqqiy ettirish yo'lida maslakdosh bo'lishiga, milliy ozodlik kurashi yo'lidagi birlashuviga asos bo'lgan edi.

1917-yil Fevral inqilobi jadidlar tafakkurini o'zgartirdi. Ular, ayniqsa, Cho'lpon ozodlik uchun kurash endi targ'ibot-tashviqot davridan amaliy faoliyat bosqichiga o'tganini chuqur angladi. Turkiston muxtoriyati hukumatining qad ko'tarishida faol ishtirok etib, muxtoriyatni ulug'lovchi "Ozod turk bayrami" she'rini bitdi va bu she'r o'zbek davlatchiligi tarixida birinchi madhiya bo'ldi. Bu paytda Turkistondagi ko'p millatli ziyolilar orasida federalizm g'oyasi keng tarqalgani uchun Cho'lpon Zaki Validiy bilan birga Orenburgga borib, Boshqirdiston muxtoriyat hukumatining tashkil etilishida ham ishtirok etdi. Zaki Validiy Cho'lponning siyosat bobida ham salohiyatli ekanini ta'kidlar ekan, 1917-1918-yillarda uning Orenburgda Boshqirdiston hukumati raisining kotibi sifatida faoliyat yuritgani haqida yozadi⁴³. Federalistlarning fikrlariga ko'ra, Turkiston va Volga bo'yidagi turkiy xalqlar o'z muxtoriyat hukumatlarini barpo etsagina, bu hukumatlarning bolsheviklar tarafidan tan olinishi va birgalikda himoyalaniishi uchun chora topish mumkin edi. 1937-yilda sho'ro hukumati Cho'lponni "millatchi" va "aksilinqilobchi" deb ayblashda uning Boshqirdiston muxtoriyat hukumatining tashkil etilishida ishtirok etgani ham asos bo'lgan edi. "O'rta Osiyo jadidlari birinchi navbatda tatar jadidlaridan o'rnak oldilar. Tatar jadid muallimlari XX asrning dastlabki yillaridanoq Samarqand va Qo'qon kabi katta shaharlarda, yigirmanchi yillarning boshlarida esa, hatto Buxoroda ham faoliyat ko'rsatdilar. O'rtaosiyolik ko'pgina muallimlar va publitsistlar Qozon, Ufa va Orenburg

⁴³ Қаранг: Аҳмад Заки Валидий Тўғон, Бугунги турк эли – Туркистон ва унинг яқин тарихи. 1-жилд, 2-нашри. – Истанбул, 1981. – Б. 568.

shaharlaridagi jadidlar bilan ham aloqa o'rnatgan edilar"⁴⁴. Darhaqiqat, Turkistonning boshqa jadidlari qatorida Cho'lpon ham tatar va boshqird ma'rifatparvarlari bilan yaqin bo'lib, ular ijodini muntazam o'qib, kuzatib borgan.

Cho'lponning tatar ma'rifatparvar shoiri Mullanur Vohidov (1885-1918) vafoti munosabati bilan 1918-yilda yozgan "Sharq nuri" marsiyasida o'z boshli – mustaqil holda yer yuzida beqiyos madaniyatga asos solgan go'zal Sharqning so'ng zamonlarda yovlar panjasida ko'zyoshli holga tushganidan o'kinch tuyg'usi aks etgan. Marsiya barmoq vaznida yozilgan. She'rning har bir misrasi 11 bo'g'inli bo'lib, 4-4-3 tarzida uch turoqqa bo'lingan. Turoqlarning bu tarzda taqsimlanishi fikrni va uning zamiridagi dardni bor ko'lami bilan ifodalash imkonini bergan. Cho'lpon ma'rifatparvar Mullanur Vohidovning dushmanlariga butun Sharqning g'animi sifatida qarab, ularga bo'lgan nafratini quyidagicha ifodalaydi:

Pok siynangga o'q otuvchi dushmanlar,
O'ylamaki, bir o'zingning dushmaning;
U dushmanlar butun Sharqning dushmani,
Ko'pdan ichib kelgan qonlarin uning.

Marsiyada yaqin do'sti vafoti munosabati bilan shoir qalbida kechgan iztirob bilan birga ijtimoiy voqelikka munosabati ham aks etgan. Shoir uning ruhi sharqsuyar ekani, Sharqning uni suyishini alohida ta'kidlaydi. Bu ma'rifat fidoyisi va Sharq tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq ekaniga urg'u beradi. Dissertatsiyada, bundan tashqari, Cho'lponning tatar do'sti va shogirdi Abdulla Alaviyga bag'ishlangan marsiyasi ham tahlil etilgan.

XX asr boshlarida tatar adabiyotining yetakchi vakili Abdulla To'qay o'zbek adabiyoti bilan mustahkam aloqada bo'lgan. Bolsheviklar imperiyasi hududidagi barcha mazlum xalqlar hayoti shoir ijodining bosh mavzusidir. Mustamlaka balosidan qutulishni istagan mazlum xalqlar birdamlikni, ahillikni, siyosiy birlikni istagani ma'lum. Bu borada ham To'qayning xizmatlari katta edi. O'sha davrda Cho'lpon, Elbek, Mag'jon Jumaboy va boshqalar To'qay she'rlaridagi milliy istiqlol ruhiga e'tibor qaratib, undan ta'sirlandi. Abdulla To'qayning milliy ozodlik va istiqlol orzusi talqin etilgan "O'z-o'zimga", "Kuz", "Millata", "Yoshlar" singari otashin millatparvarlik ruhidagi she'rlari bilan 20-yillar yangi o'zbek milliy she'riyatining yetakchisi Cho'lponning Turkiston xalqlari milliy ozodligi va ravnaqi kuylangan "Kuz", "Yana qor", "Ko'klam", "Haqiqat yo'li bir o'tilg'usi" kabi she'rlari o'rtasida g'oyaviy mushtaraklikni ko'rish mumkin.

Cho'lpon qardosh turk, ozarbayjon, tatar, boshqird va qozoq xalqlari adabiyotini chuqur o'rgangan. Mazkur xalqlarning mashhur ijodkorlari bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Jumladan, qozoq xalqining atoqli shoiri Mag'jon Jumaboy ijodini yaqindan bilgan. Ahmad Zaki Validiy To'g'on o'z xotiralarida: *"Mag'jon va Cho'lpon bir butun millatning dardini kuylagan bir-biriga o'xshash shoirlar, oradagi farq faqat ularning ismlaridadir. Ular turkiy millatning ori va vijdoni edilar"*⁴⁵, – deb bu ikki shoir ijodiga yuqori baho bergan edi. Cho'lpon o'zbek she'riyatiga yangi ohang va motivlarni, ohorli mazmun va obrazlarni olib kirgani

⁴⁴ Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б. 48.

⁴⁵ Ахмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. /Туркистонда мустақиллик ва озодлик курашлар тарихи. (Туркчадан Муҳаммаджон Абдурахмонов таржимаси). – Тошкент: Истиқлол нури, 2014. – Б. 421.

kabi Mag‘jon Jumaboy ham yangi zamon qozoq she‘riyati takomiliga ulkan hissa qo‘shdi. Nasimxon Rahmonov fikricha: “Mag‘jon turkiyzabon shoirlar orasida rus va Yevropa adabiyotidan ramziyotchilik (simvolizm)ni qozoq she‘riyatiga olib kirgan ilk peshqadam shoirlardan biri bo‘ldi. Ramziyotchilik rus va Yevropa she‘riyatiga shunchaki taqlid emas, balki turkona badiiy tafakkurning she‘riyatda yangilanishi, “daraxt ortidagi o‘rmonni ko‘ra olish” layoqatining ifodasi edi”⁴⁶. Cho‘lpon o‘zbek she‘riyatiga ramziyotchilikni olib kirgani bu ikki shoir ijodiy missiyasi uyg‘un ekani dalilidir.

Mag‘jon Jumaboy she‘riyatida uning Turkistonga bo‘lgan muhabbati yaqqol sezilib turadi. Shoirning yana bir she‘rida “turkning barin boqib kelgan” Jayxun va Sayxun orasida ulug‘ bobolar hikmatini topish mumkinligi vasf etiladi. Turkning Tiyonshoniga teng keladigan tog‘ yo‘qligi, viqorli Xontengri millatning cho‘ng g‘ururini yodga solishi haqidagi satrlari ruhan Cho‘lpon she‘rlariga yaqin ekani bilan qimmatlidir.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Adib nasri takomilida jahon adabiyoti namunalarining o‘rni”** deb nomlanib, birinchi faslida **“Cho‘lpon va rus nasri tajribalari” nomlanadi.** Cho‘lpon ijodiy tajribasini orttirish va o‘zbek kitobxonini rus adabiyoti bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Maksim Gorkiyning “Ona” romani va “Yegor Bulichev” pyesasi, Pushkinning “Dubrovskiy” va “Boris Godunov” asarlarini, V.Yan (Yanchevskiy)ning “Hujum” nomli pyesasini tarjima qildi. Tarjimonlik zahmati Cho‘lponning ijodiy tajribasi, badiiy mahorati o‘lishida maktab vazifasini o‘tadi. Cho‘lpon Moskvada yashagan kezlarda rus adabiyotining yirik vakili Maksim Gorkiy bilan uchrashadi. Cho‘lpon Gorkiy haqida “Katta maktab egasi” (1936), “Ustodning xislatlari”(1936) maqolalar va “Yaxshi bor, Ustoz!” nomli marsiya bitadi. Gorkiyning “katta maktab egasi”, “ulug‘ ustod”, “odam do‘sti”, “buyuk san‘atkor” deya yuksak baholaydi.

Cho‘lponning “Ona” men uchun katta bir maktab bo‘ldi. O‘zimning “Kecha va kunduz” nomli ro‘monimni men ham bu buyuk uslubchining unumli ta‘sirini doim sezib turdim”⁴⁷ degan fikriga tayanib, “Ona” bilan “Kecha va kunduz”ni tahlilga tortdik. Cho‘lpon ijodi jahon adabiyoti sarchashmalaridan suv ichgan. Buni adibning ulug‘ rus yozuvchisi Maksim Gorkiy ijodidan amalga oshirgan badiiy tarjimalari tahlili ham tasdiqlaydi. Bu tarjimalar Cho‘lpon nasriy ijodining jahon badiiy-estetik tafakkuri mezonlarida yuksalishiga asosiy ko‘priq vazifasini o‘tagan. Cho‘lpon Maksim Gorkiyning “Tong” va “Ilgaklar” hikoyalarini ham o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “Tong” qisqagina hikoya bo‘lsa-da, yuklangan ma‘no va mazmun zalvorli. Shu badiiy joziba Cho‘lponni o‘ziga tortgan bo‘lishi shubhasiz. “Dunyoda eng yaxshi narsa – kunning tug‘ilishini ko‘rmak!” deb boshlanadi hikoya. Bu, albatta, tong. Tong otishini ko‘rish, undan bahramandlik inson qalbiga nur ulashadi. Tong otishi jarayonidan bahramandlik, inson qalbida kelajakka umid, yashashga ishtiyoq tuyg‘ularni kuchaytiradi. Hikoyada “tog‘ tepalari mehribon bir tabassum bilan kulimsiraydi”, “dengiz to‘lqunlari oppoq boshlarini balandlarga ko‘taradi”, “yaxshi ko‘ngilli quyosh kuladi”, “issiq kunda pashshalar erinib-erinib

⁴⁶ Раҳмонов Н. Ерда ел бўлиб гувлаган шоир. // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2018. №5.

⁴⁷Чўлпон. Катта мактаб эгаси. /Асарлар. Тўрт жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Академнашр, 2018, – Б. 51.

uchadi”, “shabnam bilan og’irlashgan gullar sho‘x-sho‘x tebranadi”. “Har tomonda chechaklar kulgan” kabi tasvirlardan Cho‘lponning rus tabiati manzaralarini chuqur his etganligini ko‘rsatadi. Qolaversa, adib o‘zbek tilining boy leksikasidan ham san’atkorona foydalangan. Bu haqda uning o‘zi quyidagicha e’tirof qiladi: “Gorkiy har qanday tabiat manzarasini jonlantirib, unga jon kiritib, uni ko‘z oldimizga shundoqqina kelib to‘xtaydigan qilib oladi”⁴⁸.

Cho‘lpon rus nasri yetakchilaridan A.P. Chexovning “Vanka”, “Eski qo‘ra”, “Bitayotgan avlodning so‘nggi qizi”, “Yeger”, “Bo‘yinga osilgan Anna”, “Xunuk ish”, “G‘am”, “Xotin”, Aleksandr Serafimovichning “Xotin-xalaj qishlog‘i”, Lidiya Sayfullinaning “Karomat bilan Nazokat”, “Ikkinchi xotin”, “Uch taloq”, “Ichkari”, “Qismat” kabi bir qancha hikoyalarini o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Cho‘lpon ijodi jahon adabiyoti sarchashmalaridan suv ichgan. Buni adibning ulug‘ rus yozuvchisi Maksim Gorkiy va rus nasri namoyondalari ijodidan amalga oshirgan badiiy tarjimalari tahlili tasdiqlab turibdi. Bu tarjimalar Cho‘lpon nasriy ijodining jahon badiiy-estetik tafakkuri mezonlarida yuksalishiga asosiy ko‘prik vazifasini o‘tagan. Badiiy tarjimalar Cho‘lponning o‘zbek tilining nozik ma’no tovlanishlarini chuqur his etganligining, uning boy leksik zaxirasidan samarali foydalanganligini ko‘rsatadi. Nihoyatda murakkab ijtimoiy tuzumda, siyosiy bo‘hronlar girdobida yashagan ikki ulug‘ ijodkorning badiiy niyati, g‘oyalari tutashgan va bu adabiy ta’sir ufqlarini kengaytirgan.

Bobning ikkinchi fasli **“Cho‘lpon va Robindranat Thokur”** deb nomlangan. Cho‘lpon Robindrant Thokurning “Notanish qiz” hikoyasi ta’sirida “Novvoy qiz” hikoyasi yaratilishiga sabab bo‘lgan deyish mumkin. Chunki, eng kamida, Vatan va Millat qayg‘usida yonib yashayotgan ikki ijodkorning tuyg‘ulari bir-biriga muvofiq kelishi hayratlanarli hol emas, nazdimizda. Ayni shu sabablar bu ikki hikoya mohiyatining uyg‘unligini ilmiy tadqiq manbasi sifatida o‘rgana olishimizga sabab bo‘ladi. Hikoyalarda ikki millatning ikki qizi taqdiri yoritiladi. Har ikkisining ham hayotini ularning taqdiridagi fojia o‘zgartirib yuboradi.

Thokurning “Notanish qiz” hikoyasi insonni boshqa bir olamga olib kiradi. Aytish mumkinki, olam va odamlar yangilanadi, axloqi, xulqi va yashash turmushi o‘zgacha, tasvir go‘zal, ta’sirchanlik chuqur, fikr teran, albatta bundan Cho‘lpon ta’sirlangani tabiiy. Bunday iste’dod egasi, o‘zi uchun “yangilik” izlab yurgan ijodkor, Thokurdan topgani aniq, ayniqsa, ushbu hikoya orqali o‘zi ta’kidlaganday “qo‘lim qaltirasa ham, qudratim yetmasa ham, o‘sha “Sharq va G‘arb o‘rtasidagi oltun ko‘prik”ni elimga tanitmoqchi bo‘ldim degani bejiz emas.

Cho‘lpon turkiy adabiyotda eski ruhni saqlagan holda yangi (G‘arbga xos) shakllarni o‘zlashtirish tamoyilini ilgari surishi, shu yo‘l bilan bu adabiyotning ilg‘or adabiyotlar qatoriga qo‘shilishiga ishonchi ham ana shu kichik maqolada ayon bo‘ladi. Shuningdek, maqolada shoirning Tagor ijodidan uchta hikoyani tarjima qilib nashr ettirayotganini ham bilib olish mumkin. “Odam hamisha ijtimoiy munosabatlar og‘ushida yashaydi. Haqiqiy yozuvchi faol inson va haqgo‘y ijodkor bo‘lgani uchun ham ana shu munosabatlarni o‘z bitiklarida aks ettirishga mahkum. Shuning uchun adiblarning fikrlari, qarashlari hamisha e’tiborga molik,

⁴⁸ Чўлпон. Устоднинг хислатлари. /Асарлар. Тўрт жилдлик. IV жилд. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 60.

ma'rifiy va ijtimoiy yuki salmoqli bo'ladi"⁴⁹.

Cho'lpon Thokurning ikki she'rini tarjima qiladi: "Chiroqlar", "Hoy yo'lovchi qiz". Ozod Sharafiddinov fikricha, bu she'rlar: "...Robindranat Thokur siymosini targ'ib qilishga bag'ishlanganday ko'rinadi. Biroq aslida esa Cho'lpon Thokur bahonasida o'zbek adabiyotining rivoji qay yo'ldan borishi kerakligi haqidagi mulohazalarini bayon qiladi. Maqolada Thokur asarlari ideal darajasiga ko'tarilgan chinakam san'at namunalari sifatida talqin qilingan. Xo'sh, Cho'lpon Thokur ijodini qay jihatdan ideal deb biladi? Shunisi muhimki, Cho'lpon bu to'g'rida fikr bildirar ekan, faqat o'zbek adabiyoti yoxud o'zbek yozuvchilarinigina nazarda tutmaydi, balki, umuman, yangi adabiyotni, XX asr boshlarida adabiyotga kirib kelgan Sharq yoshlarini nazarda tutadi"⁵⁰. Darhaqiqat, Cho'lpon Thokur bahonasida o'zbek adabiyotining rivoji qay yo'ldan borishi va uning ravnaqi qay darajada yuksaklarga ko'tarilishi mumkinligi to'g'risida qayg'urgani kuzatiladi. Haqiqat shuki: "Shoir o'zi izlagan "yombi"ni R.Thokur asarlaridan topadi. Uning bu qadar izlagan she'riy "yombi"si qanday yombi, uning bunchalik izlagan "yo'l"i qanaqa yo'l edi? Cho'lpon yozadi: "Qo'lim qaltirasa ham, qudratim yetmasa ham, o'sha "Sharq va G'arb o'rtasidagi oltun ko'pri"ni elimga tanitmoqchi bo'ldim"⁵¹. Har ikkala olim Cho'lpon Thokurdan izlagan yo'lini topganini, yangi adabiyotni yaratishda Thokurdan ko'p narsa o'rgangani hamda ilhom olganini e'tirof etgan.

Cho'lpon salohiyatli adib sifatida badiiy nasrning betakror namunalarini yaratishi barobarida mohir tarjimon sifatida ham millat estetik tafakkuri rivojiga katta hissa qo'shgan. Robindranat Thokur asarlaridan qilgan tarjimalari xalqimizni XX asr boshlaridayoq jahon adabiyotining buyuk namoyandasi nasriy merosi bilan yaqindan tanishtirishi barobarida Cho'lpon ijodiy salohiyatining yuksalishiga ham munosib xizmat qilgan. Adib nasrida jahon adabiyoti durdonalaridagi badiiy kashfiyotlarning ta'siri yaqqol sezilib turishi sababi shundadir.

XULOSA

Abdulhamid Cho'lpon ijodida jahon estetik tafakkurining poetik sintezi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy umumlashmalarga kelindi:

1. G'arb va Sharq ma'rifatchilik adabiyoti ijtimoiy taraqqiyot, tenglik va adolat, shaxs va jamiyat erkinligi kabi g'oyalar asosida shakllangan ijtimoiy-tarixiy, madaniy-ma'rifiy hamda adabiy-estetik omillar natijasidir. G'arb ma'rifatchiligi erkinlik, taraqqiyot, bag'rikenglik, birodarlik, konstitutsiyaviy boshqaruv, cherkov va davlatni ajratish kabi g'oyalarga asoslangan bo'lsa, Sharq ma'rifatchiligi ratsionalizm va irratsionalizmni uyg'unlikda mujassam etgani bilan xarakterlanadi. G'arb ma'rifatchilik va Turkiston jadid adabiyoti jamiyat hayotini ilm-ma'rifat vositasida isloh etishga qaratilgani jihatidan mushtarak xususiyatga

⁴⁹ Йўлдош Қ. Очқичсўз. — Тошкент: Тафаккур, 2019. — Б. 34.

⁵⁰ Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. — Тошкент: "Шарк" НМАК, 2004. — Б. 71.

⁵¹ Дўстқорасев Б. Муҳаббат осмонининг гўзал Чўлпони. — Гўзал Туркистон. Шеърлар. — Тошкент: Маънавият, 1997. — Б. 7.

ega bo'lsa ham, milliy ruhiyat va dunyoqarash, tarixiy vaziyat va uning ijodkor dunyoqarashiga ta'siri hamda adabiy-estetik tafakkur mezonlarida muayyan o'ziga xosliklar kuzatiladi.

2. Jadid adabiyoti millatni ma'rifatli qilish, yurtni taraqqiy ettirish va milliy ozodlikka erishish maqsadlari yo'lida milliy tafakkurni yangiladi, nazariy-estetik jihatdan badiiy nasrda roman, falsafiy qissa, hajviy epos, she'riyatda mansura, sonet kabi yangi janrlar shakllanishini va takomilga erishuvini ta'minladi. Adabiyotni millat hayotiga har qachongidan ham yaqinlashtirdi, millat va milliyat, Vatan qismati va istiqboli uchun kurashish g'oyalarini adabiyotning yetakchi mavzulariga aylantirdi. Inson ruhiyatini tahlil qilishning yangi usullari kashf etilishi, jahon adabiyoti yutuqlarining transformatsiyasi natijasida yangi o'zbek adabiyoti yuzaga keldi.

3. Cho'lpon lirikasida Sharq mumtoz she'riyati tajribalari, birinchi navbatda, Alisher Navoiy lirikasi an'analari ta'sirida poetik sintez qilindi. "500 yil" maqolasida buyuk mutafakkirning nafaqat o'zbek, balki umumturkiy adabiyotda yuksak o'ringa ega ekani haqida fikr yuritib, shoir tavalludining hijriy hisobdagi 500 yilligini munosib nishonlash bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqqani Cho'lponning Navoiy ijodiga ixlos va muhabbati isbotidir. Navoiy lirikasidagi "zanjir", "g'ul" ("ag'lol"), "anjum" hamda Cho'lpon she'riyatidagi "kishan", "yulduz", "ko'k yulduzi" va "Er qizi" obrazlarining qiyosiy tahlili natijasida ikki shoir yashagan davr bir-biridan keskin farqlanishi, hokim millat vakili bo'lgani bois Navoiy ijodida inson va ilohiy haqiqatlar munosabati, komil inson singari g'oyalar yetakchilik qilgani, Cho'lpon asarlarida esa mustamlaka iskanjasidagi Vatan va millat ozodligi orzusining badiiy talqini asosiy o'rin tutishi haqidagi to'xtamga kelish mumkin.

